2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 193 (1792), 2026-yil 18-sentabr, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news



Farovonlik xaritasi

QORAQALPOG‘ISTON BUGUN SHIDDATLI RIVOJLANISH DAVRINI BOSHDAN KECHIRMOQDA

Qoraqalpog‘iston so‘nggi yillarda, xususan, yangi rivojlanish dasturlari doirasida keskin iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy yangilanish davrini boshdan kechirmoqda. Ilgari ushbu hudud faqat ekologik inqiroz hududi sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, bugun u yirik investitsiyalar, sanoat va “yashil” texnologiyalar markaziga aylanib bormoqda.

Hududning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy qiyofasini yangilashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar va ulkan bunyodkorlik ishlari bajarilmoqda. Orolbo‘yi iqtisodiy jihatdan yuksalish barobarida zamonaviy infratuzilma, “yashil” texnologiyalar va turizm markaziga aylanib, qiyofasini tubdan o‘zgartirdi. Qurigan dengiz tubidagi million gektardan ortiq maydonda saksovul va cho‘l o‘simliklari ekilib, qum ko‘chishi sezilarli darajada to‘xtatildi.

Nukus va Mo‘ynoq kabi hududlar yangi qiyofa kasb etib, zamonaviy infratuzilma, aeroport va yo‘llar barpo etilmoqda. Saviskiy muzeyi, Mo‘ynoq va Ustyurt platosi sayyohlar e’tiborini tortmoqda. Turistlar oqimi bir necha barobar oshdi.

Qoraqalpog‘iston katta iqtisodiy hamda investitsiyaviy salohiyatga ega. Shu bois, iqtisodiyotda sezilarli o‘zgarishlarga erishildi. Jumladan, 8 yil oldin hudud iqtisodiyoti aholi jon boshiga hajm bo‘yicha eng oxirgi o‘rinda edi. Bugun 7-o‘ringa ko‘tarildi. Sanoat mahsulotining atigi 4 foizi eksportga chiqarilgan bo‘lsa, hozir bu ko‘rsatkich 30 foizga yetdi. Umumiy eksport 2016-yildagiga nisbatan 3,5 karra oshib, 2,1 milliard dollar bo‘ldi.

Joriy yil yakuniga qadar ishsizlik darajasini 4,2 foizgacha, kambag‘allikni 3,2 foizgacha pasaytirish, Nukus shahri, Qo‘ng‘irot va Chimboy tumanlari hamda 109 ta mahallani ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududga aylantirish maqsad qilingan. Qo‘shimcha ravishda “og‘ir” toifadagi Bo‘zatov, Qonliko‘l, Mo‘ynoq va Shumanay tumanlari hamda 90 ta mahallada kambag‘allikni 2 barobar qisqartirish chora-tadbirlari ko‘rilmoqda.

Davomi 3-betda

HAR BIR TASHRIFDA OLTIN FURSATLARNING QADRIGA YETISH SAODATI BOR

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasiga davlat tashrifi doirasida qator uchrashuvlar va samimiy suhbatlar o‘tkazdi. Biz bu tadbirlarni katta qiziqish bilan kuzatib bordik. Mamlakatimiz yetakchisining birinchi “Markaziy Osiyo – Koreya Respublikasi” sammitidagi ishtiroki va o‘zaro bog‘liqlikda taraqqiy etishimizning muhim jihatlari bayon etilgan nutqi ham e’tiborimiz markazida bo‘ldi.

Koreys xalqining e’tiqodiy qarashlarida biznikiga o‘xshash falsafalar ko‘p. Masalan, ular ham xuddi biz kabi tongni juda qadrlaydi, o‘zgacha ehtirom bilan qarshi oladi. Har bir tong yangi imkoniyatlar va farovon hayot uchun aziz fursat deya ulug‘lanadi. Shundan bo‘lsa kerak, Janubiy Koreya “Tonggi tarovat yurti” deb ham sifatlanadi.

Prezidentimiz matbuot kotibi Sherzod Asadov davlatimiz rahbarining Janubiy Koreyaga tashrifi yakunlari bo‘yicha axborotida, jumladan, bunday dedi: “Prezident Shavkat Mirziyoyevning Tonggi tarovat yurtiga tashrifi samimiy uchrashuv va suhbatlarga boy bo‘ldi. Birinchi “Markaziy

Osiyo — Koreya Respublikasi” sammiti doirasida davlatimiz rahbari mintaqa davlatlari rahbarlari bilan muloqot qilib, ikki tomonlama munosabatlar va hamkorlikning yangi rejalarini muhokama qildi. Samimiy tabassumlar va bemalol suhbatlar mamlakatlarimiz hamda ularning yetakchilari o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni yaqqol namoyon etadi.

Davomi 2-betda

INSON KAPITALIGA TAYANGAN TARAQQIYOT FORMULASI



Taraqqiyot haqida so‘z ketganda, odatda raqamlar, investitsiyalar, yangi korxonalar, texnologiyalar va infratuzilma ko‘z oldimizga keladi. Ammo har qanday taraqqiyotning ortida, avvalo, inson turadi. Zero, zamonaviy davlatning asosiy boyligi uning yer ostidagi koni yoki moddiy resurslarigina emas. Eng katta strategik resurs bu — bilimli, salohiyatli, sadoqatli va o‘z kasbiga daxldor kadrlar.

Seulda bo‘lib o‘tgan birinchi “Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi” sammitida O‘zbekiston tomoni ilgari surgan muhim tashabbuslardan biri — inson kapitalini rivojlantirishda “buyurtma — o‘qitish — bandlik” tamoyilini joriy etish taklifi ham aynan shu haqiqatning ifodasidir.

Bu — kadrga munosabatni o‘zgartirish falsafasi. Ya’ni, avvalo, iqtisodiyot va davlat boshqaruviga qanday mutaxassis kerakligi aniqlanadi. Keyin shu ehtiyojdan kelib chiqib, inson o‘qitiladi, bilimi va ko‘nikmasi shakllantiriladi. Eng muhimi, olingan bilim amaliyot bilan uyg‘unlashib, inson o‘z salohiyatini namoyon qiladigan ish o‘rniga ega bo‘ladi.

Davomi 4-betda

JADAL IQTISODIY YUKSALISH YO‘LIDAGI STRATEGIK SHERIKLIK

Bugun davlatlarning taraqqiyot sur’atini tabiiy resurslar yoki ishlab chiqarish quvvatlarining o‘zi emas, balki texnologiya, innovatsiya, bilim va inson kapitali belgilab bermoqda. Sun’iy intellekt mehnat bozori va butun boshli sanoat tarmoqlarini o‘zgartirmoqda. Raqamli iqtisodiyot yangi imkoniyatlar bilan birga yangi xavflarni ham keltirib chiqarmoqda. Iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi, energetik transformatsiya va global ta’minot zanjirlaridagi o‘zgarishlar esa mamlakatlardan bugungi vazifalarni hal etish bilan cheklanmay, o‘n yillar keyingi taraqqiyot ehtiyojlarini ham oldindan ko‘ra bilishni talab qilmoqda.



Prezidentimizning Koreya Respublikasiga davlat tashrifi va tashrifning mantiqiy davomi bo‘lgan “Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi” sammitiga aynan shu nuqtayi nazardan qaralsa, strategik ahamiyati yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu tashrif O‘zbekiston — Koreya alohida strategik sherikligini yangi mazmun bilan boyitish bilan birga rivojlangan davlatning ulkan texnologik va innovatsion salohiyatini Markaziy Osiyoning iqtisodiy, resurs va demografik imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan yangi hamkorlik modeliga asos soldi.

O‘zbekiston va Janubiy Koreya o‘rtasidagi munosabatlar bugungi bosqichga tasodifan kelib qolgani yo‘q. O‘tgan yillarda shakllangan siyosiy ishonch, iqtisodiy manfaatdorlik va xalqlarimiz o‘rtasidagi yaqinlik mustahkam poydevor vazifasini o‘tamoqda. Mamlakatimizda Koreya sarmoyasi ishtirokida 700 dan ortiq qo‘shma korxona faoliyat yuritmoqda. KOICA, Koreya Eksimbanki va EDCF bilan hamkorlikda tibbiyot va sog‘liqni saqlash, sanoat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, qishloq va suv xo‘jaligi, energetika, infratuzilma hamda ta’lim sohalarida o‘nlab loyihalar amalga oshirilmoqda. Tashrif arafasida qariyb 12 milliard dollarlik istiqbolli loyihalar portfeli shakllantirilgani ham munosabatlarning amaliy ko‘lamini ko‘rsatadi.

Ammo bu galgi tashrifning eng muhim xususiyati hamkorlikning miqdoriy ko‘rsatkichlardan sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tayotganida ko‘rinadi. Muzokaralarda Koreyaning ilg‘or texnologiyalari bilan yangi O‘zbekistonning resurs va sanoat salohiyatini birlashtirish asosida mustahkam innovatsion va texnologik alyansni shakllantirish masalasi ilgari surildi. Bu yondashuv hamkorlikning mohiyatini o‘zgartiradi: gap endi faqat sarmoya jalb etish yoki tayyor texnologiyalarni xarid qilish haqida emas, balki zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish, mahalliylashtirish, ular asosida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan iqtisodiyotni shakllantirish haqida bormoqda.

Tashrifning ishbilarmonlik dasturi ham mazkur maqsadlarning aniq iqtisodiy asosga ega ekanini ko‘rsatdi. Koreya Eksport-import banki bilan 8 milliard dollarlik yangi hamkorlik dasturining qo‘llab-quvvatlangani, yuqori tezlikda harakatlanuvchi poyezdlar, biomarkaz, muhim minerallarni qayta ishlash va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo‘yicha loyihalarni jadallashtirish masalalari shular jumlasidan. Yarimo‘tkazgichlar va yangi materiallarni ishlab chiqish hamda sinovdan o‘tkazish markazini tashkil etish imkoniyati ham ko‘rib chiqilmoqda.

Davomi 2-betda



SUYULTIRILGAN GAZ TA’MINOTI: tizimga xususiy sektor kirib kelmoqda

Havo harorati tushib, salqin kirishi bilan issiqlik ta’minoti haqida o‘ylay boshlaymiz. “Bu yil qish qanday keladi?”, “Gaz yetkazib berishda muammolar bo‘lmaydimi?”, “Tizimda yil davomida ko‘rilgan hozirlikdan odamlarning ko‘ngli to‘ladimi?” kabi savollar ortishi ham tabiiy. Chunki kommunal xizmatlar sifati bevosita aholining kundalik hayotidagi qulayliklar, turmush farovonligi va kayfiyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, xonadonning issiqligi, ovqat tayyorlash imkoniyati kabi oddiy ko‘ringan ehtiyojlar ortida butun boshli infratuzilma va katta tizim turibdi.

Davomi 4-betda



O‘tkir Hoshimov tavalludining 85 yilligiga

NASRDAGI SHOIR

6

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Koreya biznesining yuqori malakali kadrlarga ehtiyojini Markaziy Osiyoning ta’lim salohiyati bilan uyg‘unlashtirish yoshlar uchun yangi kasbiy imkoniyatlar ochishi, qo‘shma sanoat va texnologik loyihalar uchun esa zarur mutaxassislar bazasini shakllantirishi mumkin.



JADAL IQTISODIY YUKSALISH YO‘LIDAGI STRATEGIK SHERIKLIK

Boshlanishi 1-betda

Avtomobil sanoatida ishlab chiqarishni kengaytirish va butlovchi qismlarni mahalliylashtirish, elektr va gibrid avtomobillar yig‘ish, yuqori tezlikda harakatlanuvchi poyezdlar parkini kengaytirish, ularga xizmat ko‘rsatish markazini tashkil etish kabi rejalar ham texnologik kooperatsiyaning tobora chuqurlashayotganini ko‘rsatadi. Yangi ilmiy sanoat bioklasterida ilm-fan, sanoat va zamonaviy texnologiyalarni birlashtiruvchi yaxlit ekotizimni shakllantirish, aeroportlarni boshqarish, raqamlashtirish va kadrlar tayyorlash bo‘yicha kompetensiyalar markazini tashkil etish tashabbuslari esa hamkorlikning yangi modelida texnologiya bilan birga bilim va boshqaruv tajribasini o‘zlashtirishga ham katta ahamiyat berilayotganini ko‘rsatadi.

> **Koreya Respublikasiga davlat tashrifining yana bir muhim natijasi shundaki, ikki tomonlama munosabatlarda shakllanayotgan ana shu yangi model birinchi “Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi” sammitida butun mintaqa miqyosidagi strategik qarash darajasiga ko‘tarildi.**

Bugun Markaziy Osiyo 80 milliondan ziyod nufusga ega, iqtisodiyoti 6 foizdan yuqori sur’atda o‘sib borayotgan va umumiy yalpi ichki mahsuloti 500 milliard dollardan oshgan makondir. Koreya Respublikasi esa texnologiya, innovatsiya va ilm-fanga asoslangan ishlab chiqarish bo‘yicha jahondagi yetakchi davlatlardan. Sammitda ta’kidlanganidek, ana shu ikki salohiyatning uyg‘unlashuvi mutlaqo yangi iqtisodiy va texnologik imkoniyatlarni yuzaga chiqarishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz ilgari surgan “Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi: jadal rivojlanish yo‘lidagi hamkorlik” nomli uzoq muddatli konseptual qarashni ishlab chiqish tashabbusi alohida ahamiyatga ega. Uning mohiyati bugungi muammolarni hal etish bilan cheklanmaydi. Aksincha, kelajakda mamlakatlarimizga qanday kompetensiyalar, ishlab chiqarish quvvatlari, infratuzilma, kadrlar va mutaxassislar kerak bo‘lishini oldindan belgilash nazarda tutilmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun yangi o‘sish manbalari va uzoq muddatli imkoniyatlarni yaratadigan tashabbuslardan iborat Jadal rivojlanish loyihalari portfelini shakllantirish taklif qilindi.

Aslida, bu yondashuv xalqaro hamkorlikning zamonaviy mohiyatini aks ettiradi. Taraqqiyotga erishish uchun endi faqat kapital va resursning o‘zi kifoya qilmaydi. Kelajakni oldindan ko‘ra bilish, texnologiyadagi o‘zgarishlarga tayyor turish, yangi kompetensiyalarni shakllantirish va inson kapitalini shu maqsadlarga muvofiq rivojlantirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Sammitda ilgari surilgan ikkinchi strategik yo‘nalish ham aynan shunday mantiqqa asoslanadi. Markaziy Osiyo endi faqat xomashyo yetkazib beruvchi mintaqa emas, balki qo‘shimcha qiymatning global zanjirlarida munosib o‘rin egallashga intilayotgan yangi iqtisodiy makon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu maqsadda 2030-yilga borib mintaqa mamlakatlari bilan Koreya o‘rtasidagi savdo aylanmasini 20 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo‘yildi. O‘zbekistonda “Markaziy Osiyo — Koreya” sanoat-texnologiya parkini tashkil etish tashabbusi esa ushbu g‘oyaning eng muhim amaliy ifodalaridan. U avtokomponentlar, elektrotexnika, mashinasozlik, farmatsevtika va kimyo sanoati kabi yo‘nalishlarda mintaqa bozori uchun innovatsion ishlab chiqarish bazasiga aylanishi mumkin.

Bu yerda prinsipial ahamiyatga ega bir jihat bor: Markaziy Osiyoning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni resurslar miqdori bilan emas, ana shu resurslar asosida qancha intellektual va texnologik qiymat yaratilishi bilan belgilanadi. Shu ma’noda, muhim va nodir minerallar sohasidagi hamkorlik uchinchi strategik yo‘nalish sifatida belgilangani bejiz emas.

Bugun yuqori texnologiyali sanoat, transport, energetika, elektronika va boshqa istiqbolli tarmoqlar rivojida muhim minerallarga talab ortib bormoqda. Markaziy Osiyodagi resurs imkoniyatlarini Koreyaning texnologiyasi, kapitali va ilmiy tajribasi bilan birlashtirish geologiya-qidiruv va qazib olishdan tortib, xomashyoni chuqur qayta ishlash hamda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishgacha bo‘lgan to‘liq sanoat zanjirini shakllantirish imkonini beradi. Shu maqsadda muhim minerallar bo‘yicha Mintaqaviy investitsiya alyansini tashkil etish taklif qilindi.



> **Prezidentimiz ilgari surgan “Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi: jadal rivojlanish yo‘lidagi hamkorlik” nomli uzoq muddatli konseptual qarashni ishlab chiqish tashabbusi alohida ahamiyatga ega. Uning mohiyati bugungi muammolarni hal etish bilan cheklanmaydi. Aksincha, kelajakda mamlakatlarimizga qanday kompetensiyalar, ishlab chiqarish quvvatlari, infratuzilma, kadrlar va mutaxassislar kerak bo‘lishini oldindan belgilash nazarda tutilmoqda.**



Odiljon MAMATKARIMOV, senator

> **Bugun Markaziy Osiyo 80 milliondan ziyod nufusga ega, iqtisodiyoti 6 foizdan yuqori sur’atda o‘sib borayotgan va umumiy yalpi ichki mahsuloti 500 milliard dollardan oshgan makondir. Koreya Respublikasi esa texnologiya, innovatsiya va ilm-fanga asoslangan ishlab chiqarish bo‘yicha jahondagi yetakchi davlatlardan. Sammitda ta’kidlanganidek, ana shu ikki salohiyatning uyg‘unlashuvi mutlaqo yangi iqtisodiy va texnologik imkoniyatlarni yuzaga chiqarishi mumkin.**

To‘rtinchi strategik yo‘nalish — “yashil” taraqqiyot va iqlim o‘zgarishiga moslashish ham bugungi va kelajak avlodlar manfaatlariga bevosita daxldor. Markaziy Osiyo va Koreya o‘rtasida iqlim va uglerod hamkorligi bo‘yicha yangi formatni ishga tushirish, Koreyaning ilg‘or texnologiyalarini jalb etish, energetik transformatsiya va kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tishni rag‘batlantirish mintaqaning barqaror taraqqiyoti uchun muhim.

Biroq sammitda ilgari surilgan beshinchi yo‘nalish — inson kapitali va yosh avlod salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalasi, nazarimizda, qolgan barcha yo‘nalishni birlashtiruvchi fundamental asosdir. Chunki texnologiyani ham, yangi sanoatni ham, raqamli iqtisodiyotni ham, “yashil” taraqqiyotni ham bilimli va malakali insonlar barpo etadi.

Markaziy Osiyo aholisining yarmidan ko‘pi 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlardir. Bu — ulkan demografik salohiyat. Lekin demografik ustunlik o‘z-o‘zidan iqtisodiy ustunlikka aylanmaydi. Buning uchun yoshlarga zamonaviy bilim, muhandislik va raqamli ko‘nikmalar, xalqaro tajriba va munosib mehnat imkoniyatlari zarur.

Shu jihatdan Prezidentimiz ilgari surgan “buyurtma — o‘qitish — bandlik” tamoyili o‘ta muhim. U kadrlar tayyorlash tizimini mehnat bozori va real iqtisodiyot ehtiyojlari bilan bevosita bog‘lashni nazarda tutadi. Koreya biznesining yuqori malakali kadrlarga ehtiyojini Markaziy Osiyoning ta’lim salohiyati bilan uyg‘unlashtirish yoshlar uchun yangi kasbiy imkoniyatlar ochishi, qo‘shma sanoat va texnologik loyihalar uchun esa zarur mutaxassislar bazasini shakllantirishi mumkin. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalarini birgalikda ishlab chiqish va joriy etishda yoshlarning o‘rniga alohida e’tibor qaratilgani kelajak iqtisodiyoti uchun kadrlar tayyorlash masalasi strategik darajaga ko‘tarilganini ko‘rsatadi.

Bu jarayonda O‘zbekiston muayyan tajribaga ega. Mamlakatimizda Koreya universitetlarining to‘rtta filiali faoliyat yuritmoqda. KOICA ko‘magida beshta kasb-hunarga o‘qitish markazi tashkil etilgan. Davlat tashrifi davomida ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgani bu tajribani yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi.

Bunda Koreyada mehnat qilayotgan va tahsil olayotgan vatandoshlarimiz bilan uchrashuv ham o‘ziga xos ma’no kasb etadi. Ular milliy iqtisodiyot va davlat boshqaruviga sun’iy intellekt hamda Koreyaning raqamli texnologiyalarini integratsiya qilish, tibbiyot, transport, bojxona va turizmga innovatsion yechimlarni joriy etish, AT mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha ilg‘or takliflarni bildirdi. Bu esa xorijda bilim olayotgan va tajriba orttirayotgan vatandoshlar salohiyatini mamlakat taraqqiyoti bilan bog‘lashning yangi mexanizmlarini shakllantirish uchun ham muhim asosdir.

O‘zbekiston — Koreya munosabatlarining mustahkamligi faqat iqtisodiy manfaatlarga tayanmaydi. Xalqlarimizni keksa avlodga hurmat, halol mehnatni qadrlash, Vatanga sadoqat kabi mushtarak qadriyatlar ham yaqinlashtiradi. Markaziy Osiyoning ko‘p millatli oilasi ajralmas qismiga aylangan koreys diasporasi esa xalqlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va do‘stlikning mustahkam ko‘prigi bo‘lib xizmat qilmoqda. 2027-yilda O‘zbekiston va Koreya o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganining 35 yilligi hamda koreys diasporasining mintaqamizda yashay boshlaganining 90 yilligini keng nishonlash rejalashtirilgani ushbu munosabatlarning insoniy va ma’naviy poydevorini yanada mustahkamlaydi.

Tarixdagi birinchi “Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi” sammiti yakunlari bo‘yicha Seul deklaratsiyasi va hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlariga doir qator hujjatlarning qabul qilinishi yangi formatning institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.



> **Umuman olganda, Prezidentimizning Koreya Respublikasiga davlat tashrifi va birinchi “Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi” sammiti hamkorlikning yangi falsafasini namoyon etdi. Uning mazmunini investitsiyadan texnologik kooperatsiyaga, xomashyo yetkazib berishdan yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga, tayyor texnologiyalarni jalb qilishdan innovatsiyalarni birgalikda ishlab chiqishga, kadrlar tayyorlashdan “buyurtma — o‘qitish — bandlik” asosida zamonaviy inson kapitalini shakllantirishga, ikki tomonlama manfaatdan mintaqaviy jadal taraqqiyot makonini barpo etishga o‘tish sifatida ifodalash mumkin.**

Eng muhimi, bu yangi hamkorlik modelida texnologiyaning o‘zi asosiy maqsad emas. U inson hayotini yaxshilash, yoshlarga zamonaviy bilim va kasb o‘rgatish, munosib ish o‘rinlari ochish, iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish va kelajak avlodlar uchun barqaror taraqqiyot poydevorini barpo etish vositasidir.

Shu ma’noda, Seulda boshlangan yangi bosqichni faqat navbatdagi diplomatik muloqot natijasi sifatida emas, balki O‘zbekiston va butun Markaziy Osiyoning texnologiya, bilim va inson kapitaliga tayangan kelajagini Koreya Respublikasi bilan birgalikda barpo etishga qaratilgan uzoq muddatli strategik qadam sifatida baholash mumkin.

HAR BIR TASHRIFDA OLTIN FURSATLARNING QADRIGA YETISH SAODATI BOR

Boshlanishi 1-betda

Koreya Respublikasining O‘zbekistondagi sobiq elchisi Li Uk Xyon bilan suhbat, ayniqsa, samimiy kechdi. Bu uchrashuv o‘tgan yillarni, O‘zbekiston — Koreya do‘stligini mustahkamlash yo‘lida birgalikda amalga oshirilgan ishlarni yodga olish imkonini berdi.

Sammit arafasida davlatimiz rahbari Milliy Assambleya Spikeri uchun koreys tiliga tarjima qilingan “Mirziyoyev doktrinasi” kitobiga mamnuniyat bilan dastxat yozib berdi. Bu yangi O‘zbekiston g‘oyalari va islohotlariga bo‘lgan samimiy qiziqishning yana bir ifodasidir.

Koreyalik do‘stlarimiz davlat tashrifiga alohida e’tibor va ehtirom ko‘rsatdi. Janubiy Koreyadagi eng baland bino — Lotte World Tower hamda Seul teleminorasida O‘zbekiston bayrog‘ining yorqin tasvirlari namoyon bo‘ldi. Prezidentimiz tashrifi sharafiga bayrog‘imiz ranglaridagi dirijabl parvoz qildi, qarorgoh oldidagi favvorada esa davlatimiz gerbi va bayrog‘i tasvirlari aks ettirildi.

Bularning barchasida mezbonlarning samimiy mehmondo‘stligi va yuksak hurmati sezilib turardi. Seuldan iliq taassurotlar va do‘stligimizning istiqboli porloq ekaniga ishonch bilan qaytdik”.

Darhaqiqat, davlatimiz rahbarining Janubiy Koreyaga tashrifi samimiy uchrashuv va suhbatlarga boy bo‘lganini xalqaro ekspertlar ham e’tirof etmoqda.

To‘g‘ri-da, mintaqa davlatlari rahbarlarining samimiy tabassumlari, o‘zaro erkin suhbatlariga har doim ham guvoh bo‘lavermaymiz. Bu holat esa mamlakatlarimiz hamda ularning yetakchilari o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni yaqqol namoyon etadi.

> **Yana bir gap. Har safar Prezidentimizning xorijga tashriflari juda tig‘iz kun tartibida o‘tadi va o‘zaro manfaatli uchrashuvlarga boy bo‘ladi. Bunga davlatimiz rahbari yonida yurgan jurnalistlarimiz har doim guvoh bo‘ladi. Ular ijtimoiy tarmoqlarda bu haqda yozib ham turadi.**

Kecha ham shunday bo‘ldi. Jurnalist Aziza Qurbonova o‘z sahifasida bunday yozdi: “… Men mashinada ko‘p yuraman, ko‘chada bir-biri bilan muloqot qilib ketayotgan yoshlarni ko‘rib o‘ylayman: qani endi ular eng baxtli kunlari shu ekanini bilsalar…

Bilasizlarmi, Prezident bo‘lib meni nima qiynaydi? Menga vaqt yetmaydi!”


Seulda davlat rahbarining vatandoshlarimiz bilan muloqotida shu so‘zlarini eshitib, ta’sirlandim.

Biz O‘zbekiston Prezidentining davlat tashrifini yoritish uchun kelgan jurnalistlarga ham, butun delegatsiyamizga ham va mana bildikki, Prezidentimizga ham vaqt yetmayapti.

Tasavvur qiling, Seul 4 soat oldinda. 15-sentabr O‘zbekistonda tonggi 6 bo‘lganida davlat rahbarining Koreya Milliy assambleyasida uchrashuvi bo‘layotgandi. Prezidentimiz parlament spikeri bilan xayrlashayotganida aytgan gaplari qulog‘imga chalindi: “Ishlarimiz juda ko‘p, soat 4 da uyg‘onishga to‘g‘ri kelyapti”.

“Ishlarimiz juda ko‘p”ning ma’nosi, menimcha, shunday: Prezidentning ish dasturida tushga qadar 1 ta uchrashuv, 1 ta qabul, yana 200 kishilik O‘zbekiston — Koreya biznes forumida nutq, hujjatlarni imzolash marosimi, O‘zbekiston viloyatlarida 5 ta qo‘shma yangi loyihaga start marosimi, Koreyaning 10 ta chebol kompaniyasi (ko‘p tarmoqli ulkan oilaviy biznes) bilan tet-a-tetlar. Bu vaqtda esa yana bir zalga odamlar to‘plandi, Koreyada yashayotgan, o‘qiyotgan 50 ga yaqin vatandosh mahtal turibdi. Bu ishlarni boshida turish tugul, shunchaki o‘qib ko‘rsangiz ham “ehhe” deb yuborasiz.

Kostyum-shim kiygan jiddiy odamlarning gaplarini eshitib qolaman: “Balki vatandoshlar bilan uchrashuv “otmen” bo‘lar? Uchrashuvga kirmang, deb ayta qolamiz, sammitga tayyorgarlik ko‘rishlari kerak, hali “obed” ham qilmadilar”.



> **Tasavvur qiling, Seul 4 soat oldinda. 15-sentabr O‘zbekistonda tonggi 6 bo‘lganida davlat rahbarining Koreya Milliy assambleyasida uchrashuvi bo‘layotgandi. Prezidentimiz parlament spikeri bilan xayrlashayotganida aytgan gaplari qulog‘imga chalindi: “Ishlarimiz juda ko‘p, soat 4 da uyg‘onishga to‘g‘ri kelyapti”.**

> **Tushlik qilmay ishlashlariga biz ham guvohmiz, ayniqsa, xorijda tadbir-tadbirga ulanib ketaveradi. Ko‘proq odam bilan gaplashishga harakat qiladi Prezident. Ko‘proq foyda olib ketay yurtimga deydi Prezident.**

Bir kun ichida nihoyatda ko‘p odam bilan gaplashib, topshiriqlar bergani, nutq o‘qigani —“non-stop” rejimi o‘z ta’sirini ko‘rsatadi: Prezident ba’zan tomog‘i qirilayotgani uchun uzr so‘raydi, “Bular menga suv ham bermaydi”, deb yarmi hazil, yarmi chin aytadi.


Shularni o‘qir ekansiz, Janubiy Koreyaga tashrifning qanchalik muhim va ahamiyatli bo‘lganini yana bir bor yurakdan his qilasiz. Yana anglaymizki, Prezidentimiz qayerga bormasin, kim bilan uchrashmasin, doim va doim 40 millionli O‘zbekiston xalqi manfaatini o‘ylaydi. Nima qilsa xalqimizga yaxshi bo‘lishi, hayotimiz bugungidan-da farovon bo‘lishi haqida qayg‘uradi.

Yana aytishimiz joizki, davlatimiz rahbarining xorij mamlakatlariga har bir tashrifida oltin fursatlarning qadriga yetish saodati bor.

Bundan shunday xulosaga kelamiz: mamlakatimizda keyingi yillarda bo‘layotgan tub islohotlar, xalqimizni hayotdan rozi qilish yo‘lidagi sa’y-harakatlar va ular ortidagi bugungi farovon hayotimiz zamirida juda katta tinimsiz mehnat va yana mehr-muhabbat samarasi turibdi.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri









Farovonlik xaritasi

QORAQALPOG‘ISTON BUGUN SHIDDATLI RIVOJLANISH DAVRINI BOSHDAN KECHIRMOQDA

Boshlanishi 1-betda

AMUDARYODA YANGILANISHLAR NAFASI

Qoraqalpog‘istonning Amudaryo tumani ahli bugun islohotlardan mamnun. Negaki tumanda keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari tinmayapti. Bu ishlar hududni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgani bilan ham ahamiyatli. Jumladan, joriy yilda “Og‘ir mahalla” dasturi asosida Amudaryo tumanidagi 8 ta mahalla tanlab olindi. Ularning har biriga respublika byudjetidan 3 milliarddan, umumiy hisobda 24 milliard so‘m ajratildi.



— Mazkur mablag‘, birinchi navbatda, aholini qiynab kelayotgan muammolarni hal etishga yo‘naltiriladi. Ya’ni yo‘l, suv va elektr ta’minoti yaxshilanadi. Jumladan, dastur doirasida hududlarda 6 kilometr yo‘l asfalt qilinadi. Yana 53,2 kilometr yangi elektr tarmoqlarini tortish reja qilingan. Elektr ta’minotidagi uzilishlarning oldini olish maqsadida tarmoq himoya qobig‘iga ega (SIP) kabelga almashtiriladi. Shuningdek, 19 ta zamonaviy transformator va beton ustunlar o‘rnatiladi, — deydi Amudaryo tumani hokimining birinchi o‘rinbosari Faxriddin Yusupov. — Bundan tashqari, hududlarda 160 kilovatt quvvatga ega quyosh panellari montaj qilinadi. Dehqonchilik va tomorqa xo‘jaligini rivojlantirish, suv ta’minotini yaxshilash uchun ikkita hududda 10 ta nasos o‘rnatiladi va 6 ta artezian qudug‘i qaziladi.

Infratuzilmani yaxshilash bilan birga hududning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini o‘stirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Loyihalar natijasida tumanda 402 ta yangi ish o‘rni yaratiladi. Shuningdek, 419 kishi o‘zini o‘zi band qilish imkoniga ega bo‘ladi. Natijada 536 kishi uchun doimiy daromad manbai yaratiladi. Qolaversa, 144 ta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etilib, mavjud 87 ta korxona faoliyati yanada kengaytiriladi. Bu orqali mahalliy byudjetga qo‘shimcha 1 milliard 460 million so‘m tushum kutilmoqda. Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasini kengaytirish maqsadida 98 ta savdo loti tashkil etiladi.

Amudaryo tumanining Yuqoriqishloq mahallasi misolida dastur ijrosining real samarasini ko‘rish mumkin. Bu yerda umumiy hisobda 3 ta yirik loyiha hayotga tatbiq etilmoqda. Dastlabki loyiha doirasida 665 ta xonadonga tegishli 3,1 gektar tomorqaning suv ta’minoti tubdan yaxshilanadi. Ikkinchi loyihada Navqiron avlod va G‘allakor ko‘chalarida 250 kilovatt quvvatli transformator o‘rnatiladi. Bunga qo‘shimcha ravishda Manzara, Navqiron avlod, Posbonlar, Fermerlar va Milliy istiqlol ko‘chalari bo‘ylab beton ustunlar o‘rnatilib, qiymati 1 milliard so‘mlik elektr tarmoqlari tortiladi. Uchinchi loyiha asosida mahallani tuman markazi va boshqa tutash hududlar bilan bog‘laydigan yo‘llar asfaltlanadi. Buning uchun 1 milliard 510 million so‘m ajratiladi.

Prezidentimiz 2025-yil 8-oktabrda “Alohida tuman (shahar) va mahallalarni aholining yashashi va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun namunali hududga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni imzolagan edi. Ushbu hujjat asosida tumanning Qilichboy ovulida “Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi mahalla” loyihasi hayotga tatbiq etilmoqda. Buning uchun mahallaga byudjetdan 5 milliard so‘m ajratilgan. Mazkur dastur doirasida hudud infratuzilmasini butunlay o‘zgartiradigan manzilli loyihalar ishlab chiqildi.

— Mahallamizda shu paytgacha xayolimizga ham kelmagan yangilanishlar bo‘lyapti. Masalan, 200 million so‘mga 2 ta vorkaut maydonchasi hamda 400 million so‘mga 2 ta bolalar o‘yingohi barpo etiladi, — deydi Yuqoriqishloq mahalla oqsoqoli G‘ulomjon Otajonov. — Shuningdek, piyodalar va velosipedchilar uchun 1,5 milliard so‘mga 2 kilometr yo‘lak quriladi. Mahalla ko‘chalarini obod qilib, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida 250 million so‘mga chiroqlar va “aqlli” svetofor o‘rnatiladi. Shuningdek, 950 million so‘mga yo‘llarda joriy ta’mirlash ishlari bajariladi. 3 kilometr masofadagi elektr tarmog‘i himoya qobiqli simlarga almashtiriladi. 250 kilovatt quvvatli transformator o‘rnatiladi. 1,5 milliard so‘mga kichik bozor ochish ham ko‘zda tutilgan.

Dasturlar doirasidagi bu kabi tizimli ishlar hududlar qiyofasini tubdan o‘zgartirib, aholi turmush darajasini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Beruniy tumanidagi bunyodkorlik ishlari ham xalqimiz quvonchiga sabab bo‘lyapti. Masalan, tumandagi Saroyko‘l mahallasi “og‘ir toifa”ga kiritilgan edi. Respublika byudjetidan 2 milliard, mahalliy byudjetdan 1 milliard so‘m ajratilib, hududdagi yo‘llarning 3 kilometrini asfaltlash, transformator o‘rnatish va 1,2 kilometr elektr tarmog‘ini tortish belgilangan.

Bu boradagi ishlarning salmoqli qismini allaqachon bajarishga kirishilgan. Bugun qoraqalpog‘istonliklar ana shu bunyodkorlik, yaratuvchanlik ruhiga mos tarzda yangi reja va marralar sari intilib yashamoqda.



Xotin-qizlar faoli vazifasi ta’sis etilgani tufayli muammolar mahallaning o‘zida yechim topmoqda. Ayni paytda davom etayotgan xotin-qizlar balansini shakllantirish jarayonida Qoraqalpog‘istonning Ellikqal’a va Xo‘jayli tumanlari tajribasi qo‘l kelmoqda.



ANIQ RAQAMLAR ASOSIDAGI NATIJADOR LOYIHALAR

YOXUD QORAQALPOG‘ISTONDA XOTIN-QIZLAR MUAMMOLARIGA QANDAY YECHIM TOPILMOQDA?

Jumladan, Xo‘jayli tumanidagi “Navro‘z” mahalla va Taxiatosh tumanidagi “Naymanko‘l” ovul fuqarolar yig‘inlarida o‘tkazilayotgan xatlovlar natijasida ayollarning ish bilan ta’minlashga oid murojaatlari yechim topgan. Tadbirkor va hunarmandlarning bo‘sh ish o‘rnidan kelib chiqib, xotin-qizlar bandligi ta’minlanmoqda.

Shu tumanda yashovchi Norgul Xudoyberganova ham hududdagi ilg‘or tadbirkorlardan. U mahalla xotin-qizlari hamkorligida “ustoz-shogird” an’analarini davom ettirmoqda. Ishbilarmon ayol boshchilik qilayotgan korxonada 130 ga yaqin xotin-qiz faoliyat yuritib, milliy liboslar tikmoqda. Korxonada yana 50 ga yaqin ish o‘rni ochish ko‘zda tutilgan.

— Milliy kiyimlarni Qozog‘istonga eksport qilamiz. Yaqinda filial ochib, yana 10 ta ish o‘rni yaratamiz. Hozir faoliyat yuritayotgan korxonamizga yana 20 xotin-qizni ishga olmoqchimiz, — deydi tadbirkor Norgul Xudoyberganova.

Xo‘jayli tumani Navro‘z mahallasida yashaydigan xotin-qizlar bandligini ta’minlashda hudud aholisining o‘zi faollik ko‘rsatmoqda. Kecha ish boshlagan tadbirkorlar bugun imtiyoz va imkoniyatlar sabab faoliyatini kengaytirmoqda. Natijada bozorlarimiz obod bo‘lib, aholi daromadi oshyapti.

— Shu yil 15-iyuldan boshlab “yettilik” a’zolari bilan ayollar balansini shakllantirish bo‘yicha xatlov o‘tkazdik. Natijada 1686 xotin-qiz aniqlandi. Ularni “yashil”, “sariq” va “qizil” toifaga ajratib oldik. “Sariq” toifadagi 53 ishsiz xotin-qizning har biri uchun individual dastur ishlab chiqdik. “Qizil” toifadagilar esa “yettilik”ka biriktirilgan. Ularning barchasini “sariq” va “yashil” toifaga olib chiqish uchun reja tayyorlangan, — deydi Navro‘z mahallasidagi xotin-qizlar faoli Altingul O‘razshayeva.

> **“ Xotin-qizlar balansini shakllantirishda shahrimizdagi 71 ta mahallada xatlov o‘tkazildi. Bunda ishsiz, norasmiy ish bilan band bo‘lgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarga e’tibor berildi.**

Taxiatosh tumani “Naymanko‘l” ovul fuqarolar yig‘inida ham xotin-qizlar bandligiga alohida e’tibor qaratilyapti. O‘rganishlar natijasida mahalladagi ishsiz xotin-qizlar hududdagi gilamdo‘z Zulfiya Masharipovadan ham hunar o‘rganib, ham daromad olyapti.

— Hududda yashaydigan 30 dan ortiq xotin-qizga “ustoz-shogird” an’anasi asosida hunar o‘rgatdik. Hozir ularga buyurtma berib, bandligini ta’minlayapmiz, — deydi hunarmand. — Milliy uslubda to‘qilgan gilamlarga ichki bozorda ham, xorijda ham talab yuqori. Shu bois, xotin-qizlar yaxshi daromad topmoqda.

Amudaryo tumanida ham ehtiyojmand xotin-qizlar ro‘yxati tuzilib, yordam berilmoqda. Masalan, Daryobo‘yi mahallasida yashovchi Nargiza Abdiyeva necha yillar davomida eski uyda yashab, qiyinchiliklarga duch kelgandi. Mustaqilligimizning 35 yilligi bayrami arafasida unga “Ayollar daftari” jamg‘armasi hisobidan yangi xonadon qurib berildi. To‘rt farzandning onasi Nargiza Abdiyeva yangi uyga ega bo‘lganidan mamnun.

— Oldin 6 kishi bitta xonada yashar edik. Juda ko‘p qiyinchilik ko‘rdik. Hozir mana, yangi uy qurib berildi, — deydi ko‘zidagi quvonch yoshlari bilan Nargiza Abdiyeva.

Tuman hokimi o‘rinbosari Go‘zal Sobirovaning ta’kidlashicha, hududda 109 ming xotin-qiz xatlovdan o‘tkazilib, “qizil” va “sariq” toifalarga ajratilgan.

— “Qizil” toifadagi qariyb 320 ming ayol ishsiz ekani aniqlangan. Ularga mas’ullar biriktirilib, bandligi ta’minlanmoqda. Xotin-qizlarni ishli qilib, “sariq” toifaga o‘tkazishga bel bog‘laganmiz. “Sariq” toifadagilarni esa “yashil” toifaga o‘tkazamiz, — deydi Amudaryo tumani hokimi o‘rinbosari Go‘zal Sobirova. — Umuman, xatlov natijasida tumanimizdagi ishsizlar, tadbirkorlar va muhtoj ayollar aniqlab olingan. Hozir xotin-qizlarni ishli qilish uchun yetakchi tadbirkorlarga biriktirib, kasb-hunar o‘rgatyapmiz. Kelgusida ular o‘zlashtirgan kasbi bo‘yicha tadbirkorlik subyektlarida ish boshlaydi.

Nukus shahrida xotin-qizlar balansi shakllantirilib, bandligi ta’minlangan.

— Xotin-qizlar balansini shakllantirishda shahrimizdagi 71 ta mahallada xatlov o‘tkazildi. Bunda ishsiz, norasmiy ish bilan band bo‘lgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarga e’tibor berildi. Qolaversa, 11-sinfni bitirib, oliy o‘quv yurtlariga kira olmagan qizlar va OTMni bitirib, ish izlayotgan opa-singillarimiz ham e’tibordan chetda qolmadi. Hozir qancha xotin-qiz ishsiz ekani va ular uchun nechta ish o‘rni ochish imkoni borligi aniqlangan. Nukus shahri mahallalaridagi xotin-qizlarni “sariq”, “yashil”, “qizil” toifalarga bo‘lib oldik, — deydi Nukus shahar hokimi o‘rinbosari Zulfiya Dao‘letnazarova. — Hozir ularni ishga joylashtirish borasida chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Qoraqalpog‘istonda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va ular bilan tizimli ishlash borasida sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. O‘rganishlar orqali aniq raqamlar shakllantirilib, bandlik borasidagi puxta va natijador loyihalar amalga oshirilmoqda. O‘z o‘rnida, ular fidokorona mehnati bilan mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadi.

BOZORLAR TO‘KINLIGI – YURT RAVNAQINING KO‘ZGUSI

Nukus tumanidagi “Biogumus” fermer xo‘jaligi serquyosh zaminimiz, sermahsul tuprog‘imizda yetishtirilgan pomidorni tabiiy sharoitda quritib, eksport qilmoqda. Yosh tadbirkor Sherzod Niyazimbetov rahbarlik qilayotgan ushbu fermer xo‘jaligida pomidordan 10 turdagi mahsulot ishlab chiqarilmoqda. Tayyor mahsulotlar Xitoy, Fransiya, Isroil va Yaponiya kabi davlatlarga yuborilmoqda.



> **“ “Oltinsoy” ovul fuqarolar yig‘inida 63 ta kambag‘al oila yashaydi. Mahallada sharoit va resurslar yetarli. Ulardan unumli foydalanib, yil yakunigacha ovulni kambag‘allikdan xoli hududga aylantirish reja qilingan.**

Joriy yilda ishlab chiqarish quvvatini oshirish uchun 15 milliard so‘m evaziga Xitoydan zamonaviy uskunalar olib kelindi. Hozir ular montaj qilinmoqda. Uskunalar ishga tushirilgach, quyoshda quritilgan pomidorga yog‘ va ziravorlar qo‘shish orqali yangi turdagi mahsulotlar tayyorlanadi. Natijada korxonada kuniga 5000 quti mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi. Loyiha to‘liq quvvatda ishga tushgandan keyin korxona faoliyati yanada kengayib, ishlab chiqarish hajmi, eksport salohiyati oshadi. Yangi ish o‘rinlari ochiladi.

Umuman, bugun Qoraqalpog‘istonda shu kabi katta-kichik loyihalar aholi bandligi va farovonligiga katta hissa qo‘shmoqda. Jumladan, Beruniy tumanining olis hududi bo‘lgan “Oltinsoy” ovul fuqarolar yig‘inida “mahalla yettiligi” tomonidan mikroloyihalar orqali aholi kambag‘allikdan chiqarilmoqda.

— Tomorqasidan samarali foydalanishi uchun “Oltinsoy” ovul fuqarolar yig‘inidagi ijtimoiy himoya reyestriga kiritilgan to‘rtta oilaga subsidiya asosida suv nasoslari olib berildi. Shuningdek, “Oltinsoy” va “Qizil qal’a” ovul fuqarolar yig‘inlarida chorvachilikni rivojlantirish maqsadida 12 foizli imtiyozli kredit ajratilishi belgilangan. Shu asosda kambag‘allik reyestridagi sakkizta oilaning har biriga 25 tadan zotdor qo‘y berildi, — deydi Beruniy tumani hokimi Ikrom Xidirov.

“Oltinsoy” ovul fuqarolar yig‘inida 63 ta kambag‘al oila yashaydi. Mahallada sharoit va resurslar yetarli. Ulardan unumli foydalanib, yil yakunigacha ovulni kambag‘allikdan xoli hududga aylantirish reja qilingan.

Hozir qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishning o‘zi kifoya qilmaydi. Ularni sifatli saqlash va mavsumdan tashqari vaqtda ham iste’molchiga uzluksiz yetkazib berish muhim. Bu bozorda narx-navoning barqaror saqlanishiga xizmat qiladi. Shu bois, so‘nggi yillarda mamlakatimizda sovitkichli omborlar tarmog‘ini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunday ishlar hududlardagi dehqon va fermer xo‘jaliklari faoliyatida ham natija bermoqda.

Amudaryo tumani Toshyop ovuli hududida faoliyat yuritayotgan Sherzod Bekmanov dehqon xo‘jaligi meva mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va yil davomida iste’molchilarga yetkazib berish bo‘yicha boshqalarga namuna bo‘la oladi.

— Xo‘jaligimiz tasarrufida 4 gektar bog‘ bor. Shuningdek, 10 gektar olmazorni ham ijara asosida foydalanishga olganmiz, — deydi xo‘jalik rahbari. — Mazkur bog‘lardan olma hosili yig‘ib-terib olinib, xo‘jaligimizdagi sovitkichli omborga joylashtirilyapti. Ularni qish va bahorda bosqichma-bosqich ichki bozorlarga chiqaramiz.

Dehqon xo‘jaligi bundan ikki yil avval umumiy hajmi 150 tonna bo‘lgan ikkita sovitkichli ombor tashkil etgan edi. Hozir ushbu omborlarga xo‘jalik bog‘idan terib olingan hosil to‘planmoqda. Bunday omborlar uchun ham muayyan imtiyozlar mavjud. Masalan, Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-apreldagi tegishli qarori asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sovitkichli sig‘imlar uyushmasiga a’zo bo‘lgan subyektlarga sovitkichli ombor qurish yoki jihozlash, shuningdek, ularning elektr energiyasi xarajatining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar ajratilmoqda.

Tadbirkor Sherzod Bekmanov tasarrufidagi fermer xo‘jaligida paxta, g‘alla va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlaridan ham mo‘l hosil olinmoqda. Ayni kunlarda xo‘jalikning paxta dalasida terishga tayyor turgan mo‘l hosil ko‘zni quvnatadi. Xo‘jalik rahbari joriy yilda ham paxtadan yuqori hosil olib, salmoqli daromadga erishishni reja qilgan.

Bog‘dorchilik, paxtachilik va g‘allachilikni bir vaqtda yo‘lga qo‘ygan ko‘p tarmoqli xo‘jaliklar yil davomida barqaror daromad topadi. O‘nlab oilalar farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Minajatdin QUTLIMURATOV tayyorladi.



Soliq qo‘mitasining Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan bir qator tizimli loyihalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Yangicha yondashuvlar

INSON KAPITALIGA TAYANGAN TARAQQIYOT FORMULASI



To‘rabek TO‘RAYEV,
Soliq qo‘mitasi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti direktori

Boshlanishi 1-betda

Shunday ekan, gap shunchaki kadr tayyorlash haqida emas. Gap inson taqdirini mehnat bozori ehtiyoji bilan uyg‘unlashtirish haqida. Soliq tizimida ham inson kapitali — bosh strategik resurs. Bu yondashuv soliq tizimi uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Chunki zamonaviy soliq ma’muriyatchiligi faqat qonunni bilish yoki raqamlar bilan ishlashdan iborat emas. Bugun soliqchi raqamli texnologiyalarni tushunadigan, tahlil qiladigan, muloqotga tayyor, o‘zgarishlarga moslasha oladigan va eng muhimi, davlat va jamiyat oldidagi mas’uliyatini chuqur his etadigan mutaxassis bo‘lishi kerak.

Shu ma’noda, 2030-yilga qadar belgilangan strategik vazifalar doirasida soliq tizimida kadrlar salohiyatini rivojlantirish, xodimlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, malaka oshirish tizimini takomillashtirish va kadrlar qo‘nimsizligiga barham berishga qaratilgan ishlar inson kapitaliga berilayotgan e’tiborning amaliy ifodasidir.

Zero, kadrlar qo‘nimsizligi faqat HR muammosi emas. Bu institutsional xotira, tajriba va tizim samaradorligi masalasidir. Bir xodim ketganda uning lavozimi bo‘shaydi, xolos deb qarash masalaning mohiyatini tor tushunishdir. U bilan birga tajriba, ko‘nikma, jamoaviy aloqalar va yillar davomida shakllangan institutsional bilimning muayyan qismi ham ketishi mumkin.

Shuning uchun zamonaviy HR siyosati xodimni ishga qabul qilish bilan emas, uning tizimda o‘zini qadrlangan, rivojlanayotgan va kelajagini ko‘rayotgan inson sifatida his qilishi bilan o‘lchanadi.

“TOP-100”: yosh kadrga berilgan ishonch

Shu nuqtayi nazardan, Soliq qo‘mitasining Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan bir qator tizimli loyihalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, kadrlar zaxirasini shakllantirish, istiqbolli yosh mutaxassislarni aniqlash va salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ishlar yo‘lga qo‘yildi. Soliq tizimida istiqbolli yosh kadrlarni aniqlash va rahbarlik salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan “TOP-100 yosh soliq kadrlari” loyihasi yosh mutaxassislarga ishonchning amaliy ko‘rinishidir.

Ularning aksariyati rahbarlik lavozimlariga jalb etilayotgani bir haqiqatni ko‘rsatadi: yoshlik tajribasizlik degani emas, agar unga imkoniyat, bilim va ishonch berilsa, yosh kadr o‘zgarishlarning asosiy drayveriga aylanishi mumkin. Bu yerda eng muhim jihat — lavozimning o‘zi emas. Muhimi, kelajak rahbarlarini bugundan tayyorlash.

Dunyo tajribasi — milliy amaliyotga

Salohiyatli kadrni shakllantirishning yana bir muhim omili tajriba almashinuvidir. Mamlakatimizdagi Soliq oliy maktabi imkoniyatlari bilan birga rivojlangan davlatlarning nufuzli oliy ta’lim muassasalarida stajirovkalar tashkil etilishi, xorijiy tajribani o‘rganish va ilg‘or yondashuvlarni soliq ma’muriyatchiligiga implementatsiya qilish jarayonlari kadrlar dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Chunki bugungi soliqchi faqat o‘z tizimidagi jarayonlarni emas, dunyo soliq ma’muriyatchiligi qayerga qarab borayotganini ham bilishi kerak.

Texnologiya o‘zgarayotgan bir paytda bilimni yangilamaslik kechagi usul bilan bugungi muammoni hal qilishga urinishdir.

Yosh kadrlarga e’tiborning yana bir muhim namunasi sifatida avgust oyida Samarqand shahrida o‘tkazilgan “Yosh soliqchi — 2026” forumini qayd etish mumkin. Kuchli ekspertlar ishtirokida o‘tkazilgan muloqotlar, fikr va tajriba almashinuvi yakunida yo‘l xaritasining shakllantirilishi esa tadbirni oddiy forum doirasidan chiqarib, amaliy natijaga yo‘naltirdi.

Chunki har qanday g‘oyaning haqiqiy qiymati uning qanchalik chiroyli aytilganida emas, qanchalik amalga oshirilganida namoyon bo‘ladi.



Kuni kecha Zominda o‘tkazilgan “HR xavflarni boshqarish” treningi ham tizimda kadrlar masalasiga munosabat tubdan o‘zgarayotganini ko‘rsatadi. Xavfni boshqarish uchun, avvalo, uni tan olish va aniqlash kerak.

Shu ma’noda, tizim xodimlari o‘rtasida “Inson resurslari sohasidagi xatarlarni aniqlash” mavzusida o‘tkazilgan so‘rovnoma ham muhim qadam bo‘ldi. Natijalar mehnat muhiti, xodimlarning tashkilotga daxldorlik hissi, ichki motivatsiyasi va kasbiy rivojlanishi bilan bog‘liq ayrim yo‘nalishlarda qo‘shimcha choralar zarurligini ko‘rsatdi.

Bu natijalarni muammo emas, rivojlanish nuqtalarini aniqlash imkoniyati sifatida qabul qilish joiz. Zero, kuchli tashkilot muammosi yo‘q tashkilot emas. Kuchli tashkilot muammosini yashirmaydigan, uni aniqlaydigan va yechim izlaydigan tashkilotdir.

Inson kapitalini rivojlantirishning uchinchi muhim yo‘nalishi — “ustoz-shogird” an’analarini takomillashtirish. Texnologiyani kitobdan o‘rganish mumkin. Qonunni darslikdan o‘qish mumkin. Ammo kasbning nozik jihatlari, qaror qabul qilish madaniyati, mas’uliyat, muloqot va tizimda yillar davomida shakllangan amaliy tajribani faqat insondan insonga o‘tkazish mumkin.

Shu bois, “ustoz-shogird” tizimi — o‘tmishdan qolgan an’ana emas. U institutsional xotirani saqlashning zamonaviy mexanizmi. Bugungi ustozning shogirdi ertaga rahbar bo‘lishi mumkin. Ertangi rahbar esa keyingi avlodga o‘z tajribasini beradi. Shu tariqa tizimda nafaqat kadr, balki maktab ham shakllanadi.

Bosh mezon — natija

Eng muhim jihatlardan biri ushbu jarayonlarni tizimli tashkil etish maqsadida Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamentining alohida strategiyasi qabul qilinib, har bir yo‘nalish bo‘yicha yo‘l xaritalari va reglamentlar ishlab chiqilganidir.

Demak, yo‘nalish belgilandi. Tashkiliy va uslubiy asoslar hamda mexanizmlar shakllantirildi. Kadrlar zaxirasi yaratilmoqda. Yoshlarga imkoniyat berilmoqda. Xorij tajribasi o‘rganilmoqda. HR xavflari aniqlanmoqda. “Ustoz-shogird” tizimi takomillashtirilmoqda. Endi eng muhim bosqich — natija. Chunki davlat boshqaruvida har qanday strategiyaning haqiqiy mezoni hujjatlar soni emas, inson hayoti va mehnatida seziladigan o‘zgarishdir.

Kelajakka investitsiya

Seulda ilgari surilgan “buyurtma — o‘qitish — bandlik” tamoyilini kengroq falsafiy ma’noda talqin qilsak, bu aslida bir savolga javobdir: davlat kelajakni nimadan quradi? Javob oddiy: insondan!

Zavod qurish mumkin. Texnologiya sotib olish mumkin. Dastur yaratish mumkin. Ammo ularni ishlatadigan, takomillashtiradigan va yangi g‘oyalarga aylantiradigan inson bo‘lmasa, barcha investitsiyaning samarasi cheklanadi. Shuning uchun inson kapitali xarajat emas. Inson kapitali — investitsiya.

Soliq tizimida bu falsafa yanada muhim. Chunki zamonaviy soliq ma’muriyatchiligining yuzi uning binolari yoki texnik vositalari emas, insonlari. Bilimli soliqchi — adolatli va samarali ma’muriyatning poydevori. O‘zini qadrlangan his qilgan xodim tizimga sadoqat bilan xizmat qilishga intiladi. Doimiy o‘qib-o‘rganadigan mutaxassis islohotlarning faol ishtirokchisiga aylanadi.

Yosh kadrga ishonch bildirilsa kelajak rahbari shakllanadi. Ustozning tajribasi shogirdga o‘tsa, tizimning institutsional xotirasi saqlanadi. Shu ma’noda, bugun soliq tizimida kadrlar bilan bog‘liq qilinayotgan ishlar oddiy HR jarayonlari emas. Bu — kelajak davlat xizmatchisining qiyofasini shakllantirish jarayoni.

Seul sammitida aytilgan “buyurtma — o‘qitish — bandlik” formulasi esa ana shu jarayonga yana bir muhim mezonni qo‘shadi: insonni shunchaki ish bilan ta’minlash emas, uning salohiyatini mamlakat taraqqiyotiga bog‘lash. Zero, kuchli davlatni faqat kuchli iqtisodiyot emas, kuchli insonlar barpo etadi. Bugun kadrlarga sarmoya kiritayotgan har bir tizim aslida ertangi kunga sarmoya kiritmoqda.



SUYULTIRILGAN GAZ TA’MINOTI: tizimga xususiy sektor kirib kelmoqda



Ma’lumotlarga ko‘ra, yurtimizda 3,8 millionga yaqin aholi hamda qariyb 2 mingta ijtimoiy soha obyekti suyultirilgan gaz bilan ta’minlanadi. Joriy yilda aholi va ijtimoiy soha obyektlari ehtiyoji uchun 604,8 ming tonna suyultirilgan gaz yetkazib berish ko‘zda tutilgan. Ayni vazifa yangicha tartibda bajarilishi kutilyapti. Boisi, ushbu yo‘nalishda mutlaqo yangi tizim joriy etilmoqda.

Boshlanishi 1-betda

Yurtimizda ana shu tizimni tubdan yangilab, doimiy rivojlantirib borish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangani boisi shunda. Xususan, aholini suyultirilgan gaz bilan sifatli va uzluksiz ta’minlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Yurtimizda tabiiy gaz tarmog‘i yetib bormagan hududlar mavjud. Bunday xonadonlar aholisi, asosan, suyultirilgan gazdan foydalanadi. Ammo ba’zan gaz yetkazib berishda muammolar kuzatilmoqda.

Bundan o‘n yil oldingi vaziyatni ko‘pchilik yaxshi eslaydi. Suyultirilgan gaz bilan bog‘liq muammolar deyarli har bir oilaga daxldor edi. Yillar davomida yangilanmagan infratuzilma ortib borayotgan yuklamani ko‘tara olmay qolgandi. Ayrim xonadonlar gaz kelishini haftalab kutishga majbur bo‘lgan. Ayniqsa, qish oylarida muammo yaqqol ko‘rinib qolardi. Gaz ballonlarini sotib olish u yoqda tursin, ularni topishning o‘zi mahol bo‘lgan. Tanqislik asta-sekin odamlar hayotining odatiy qismiga aylanib qolgandi.

Hozir bu muammolardan asar ham qolmagan deyishdan yiroqmiz. Ammo keyingi yillarda sohadagi o‘zgarishlar bevosita odamlar turmush tarziga kirib borgani rost. Tizim tubdan yangilanib, tabiiy va suyultirilgan gaz ta’minotida mutlaqo zamonaviy, raqamlashgan yondashuvlarga o‘tilgani samarasi yurtdoshlarimiz hayotida yaqqol sezilmoqda. Yirik ko‘lamdagi modernizatsiya ishlari sabab aholini gaz bilan ta’minlash qamrovi oshib boryapti.

Shunga qaramay, hali qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar ko‘p. Aholiga suyultirilgan gazni o‘z vaqtida yetkazib berishda ba’zi muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, ayrim hududlarda suyultirilgan gaz iste’molchilarga belgilangan muddatlarda yetib bormayotgani bois, aholi zarur manbani avtomobillarga gaz quyish shoxobchalaridan bozor narxlarida xarid qilishga majbur bo‘lyapti. Bu odamlar uchun ortiqcha harakat va xarajat degani. Qish eshik qoqayotgan bir vaqtda shu kabi masalalarni hal etish zarur.

Ma’lumotlarga ko‘ra, yurtimizda 3,8 millionga yaqin aholi hamda qariyb 2 mingta ijtimoiy soha obyekti suyultirilgan gaz bilan ta’minlanadi. Joriy yilda aholi va ijtimoiy soha obyektlari ehtiyoji uchun 604,8 ming tonna suyultirilgan gaz yetkazib berish ko‘zda tutilgan. Ayni vazifa yangicha tartibda bajarilishi kutilyapti. Boisi, ushbu yo‘nalishda mutlaqo yangi tizim joriy etilmoqda.

Shu yil 7-sentabrda davlatimiz rahbariga aholini suyultirilgan gaz bilan ta’minlash tizimini isloh qilish yuzasidan takliflar taqdimot qilindi. Unda bir qancha yo‘nalishlar belgilangan bo‘lib, asosiy maqsad suyultirilgan gazning odamlarga o‘z vaqtida yetib borishi, ta’minotda uzilishlarga yo‘l qo‘yilmasligiga qaratilgan. Davlatimiz rahbari qo‘yayotgan talab ham shu — ayni masalada, eng avvalo, aholi manfaati ustuvor bo‘lishi zarur.

— Suyultirilgan gaz ta’minotida bosqichma-bosqich bozor tamoyillariga o‘tilyapti, — deydi energetika vaziri Sherzod Xo‘jayev. — Buning uchun sohaga xususiy sektorni keng jalb etish va raqobat muhitini shakllantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Yangi yondashuvni, avvalo, Andijon viloyatida pilot loyiha sifatida amalga oshirish belgilandi. Unga ko‘ra, hududda “Hududgazta’minot” bilan bir qatorda xususiy tadbirkorlarga ham gazni aholiga erkin narxlarda sotish imkoniyati beriladi. Buning uchun barcha shart-sharoitlar yaratilib, ba’zi qonunchilik hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritiladi, maqsad sohada tadbirkorlarni kengroq rag‘batlantirishga qaratilgan.



Kun mavzusi

Bu odamlarning tanlov va xizmatdan foydalanish imkoniyatini ham oshiradi. Masalan, bugungi kunda aholi orasida belgilangan normadan ortiqcha suyultirilgan gaz iste’moliga ehtiyoji bo‘lsa, o‘z shaxsiy avtomobillarida gaz to‘ldirish shoxobchalariga borib, gaz ballonlarini to‘ldirib, noto‘g‘ri tarzda foydalanish holatlari uchrab turibdi. Ana shunday xavfli holatlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun kerak bo‘lsa har bir mahallada suyultirilgan gaz ballonlari sotiladigan, barcha texnik talablarga javob beradigan xususiy shoxobchalarni ochish ko‘zda tutilgan. Sohaga xususiy sektor kirib kelishi esa raqobat muhitini yaratib, aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshiradi.

Iste’molchilarda tanlov imkoniyati bo‘ladi

Gap endi odamlar “uyimizga qachon suyultirilgan gaz yetkazib berishar ekan”, deb kutib o‘tirmasdan, yaqin atrofdagi xususiy shoxobchadan istalgancha gaz sotib olishi mumkinligi haqida boryapti. Andijonda boshlanadigan pilot loyiha asosiy tajribaga aylanishi kutilyapti. Loyiha doirasida jarayonga kamida ikkita xususiy operator jalb etiladi. Ular zarur litsenziya va ruxsatnomalar, malakali muhandis-texnik xodimlarga ega bo‘lishi kerak. Hududlarda shoxobchalar tashkil qilinib, suyultirilgan gazni yetkazib berishning aniq jadvali bo‘ladi, hisob-kitoblar raqamlashtirilib, taqsimot shaffofligi ta’minlanadi.

Iste’molchilar uchun mobil ilova va onlayn xizmatlar yo‘lga qo‘yiladi. Odamlar suyultirilgan gazni onlayn buyurtma berishi, o‘zi istagan vaqtda istalgan hajmda sotib olishi kabi qulayliklar yuzaga keladi. Bu esa ilgari mavjud bo‘lgan “gaz qachon keladi?” kabi savollar o‘rniga “buyurtmam qachon yetkazib beriladi?” degan zamonaviy xizmat modelini shakllantiradi. Asosiysi, odamlarda tanlov imkoniyati oshadi. Masalan, ayni paytda “Hududgazta’minot” tomonidan asosan 20 kilogrammli ballonlardan foydalanilmoqda. Yangi modelda esa tadbirkorlarga zamonaviy gaz ballonlaridan foydalanish, ularni iste’molchilarga o‘z ehtiyojidan kelib chiqib taklif etish imkoniyati beriladi. Raqobat muhitida sifat va tezkor xizmat turlari ortadi.

Xususiy sektorni jalb qilish borasida dastlabki tajriba sifatida Andijon viloyati tanlangani bejiz emas. Bugungi kunda viloyat tadbirkorlari xorijdan suyultirilgan gaz xarid qilib, ichki bozorda sotmoqda. “Shirin” punktida boshlangan tajriba natijalari yangi yondashuv samaradorligini ko‘rsatdi. Endi ayni tajribani yanada takomillashtirish va natijadorligini oshirish ishlari davom ettiriladi. Yangi tajriba bosqichma-bosqich boshqa hududlarda ham joriy etiladi.

— Tizimda shaffoflikni ta’minlashdagi muhim jihatlardan yana biri suyultirilgan gazning chakana narxini belgilashda iqtisodiy asoslangan bozor mexanizmlariga o‘tilayotganidir, — deydi iqtisodiyot va moliya vaziri o‘rinbosari Xurshid Mustafoyev. — Gap shundaki, suyultirilgan gaz ishlab chiqarish, import, xarid va yetkazib berish xarajatlari o‘rtasidagi tafovut yildan yilga ortib, byudjetdan ajratiladigan subsidiyalarga talab ko‘paymoqda. Katta hajmdagi mavjud ehtiyojni qondirish uchun faqat tizimni boshqarishning o‘zi yetarli emas. Resurslarni xarid qilishdan tortib, yetkazib berishgacha bo‘lgan barcha bo‘g‘inlarni bir butun tizim sifatida takomillashtirish zarur. Shu bois, “Hududgazta’minot” ta’sischiligida “LPG-Trade” MCHJni tashkil etish taklif qilindi. Ushbu tuzilma suyultirilgan gazni birja orqali xarid qilib, belgilangan tartibda odamlarga yetkazib berish bilan shug‘ullanadi. Jarayonda narx siyosati bosqichma-bosqich tartibga solinib, ehtiyojmand oilalar uchun manzilli qo‘llab-quvvatlash mexanizmi joriy etiladi. Ijtimoiy soha obyektlarining ehtiyojlari uchun suyultirilgan gazni birja narxlarida yetkazib berish, aholiga belgilangan narxda sotish natijasida yuzaga keladigan salbiy tafovutni respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplash tartibi ham ko‘zda tutilmoqda.

Bunda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar manfaatlari alohida e’tiborga olinadi. Yagona ijtimoiy himoya reyestriga kiritilgan oilalarga gaz xaridi uchun subsidiyalar ajratish belgilanyapti. Bu, ayniqsa, kuz-qish mavsumida aholining yordamga muhtoj qatlami uchun qo‘shimcha ko‘mak bo‘ladi.

Yangi tizimga ko‘ra, xizmat narxlarini bosqichma-bosqich bozor mexanizmlari asosida, yetkazib berish xarajatlari va infratuzilmani rivojlantirish ehtiyojlarini hisobga olgan holda shakllantirish rejalashtirilyapti. Har kim iste’molga yarasha to‘lov qiladigan shunday sharoitda, qolaversa, sovuq mavsum sabab gazga talab oshgan vaqtda ayrim oilalar uchun iste’mol ehtiyojini qondirish qiyinchilik tug‘diradi. Shu bois, davlat tomonidan yordam umumiy imtiyoz shaklida emas, aynan ehtiyojmand oilalarga yo‘naltiriladi. Suyultirilgan gazni import qiluvchi korxonalar uchun birja savdolarida qonunchilik asosida ayrim imtiyoz va chegirmalar berilishi esa resurs ta’minotini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, suyultirilgan gaz ta’minotida yangi bosqichga o‘tilyapti. Bundan, avvalo, aholi manfaatdor bo‘lishi kerak. Belgilangan choralar natijasi, ayniqsa, kuz-qish mavsumida odamlarning uyi issiq, gaz ta’minoti bilan bog‘liq muammosi bo‘lmaganida ko‘rinadi. Qolaversa, ushbu yo‘nalishda aholiga qulay, xavfsiz va barqaror xizmat ko‘rsatishni ta’minlash maqsad qilingan. Iste’molchi suyultirilgan gazni qayerdan topishni emas, uni qanchalik tez va sifatli olishni o‘ylaydigan, o‘ziga mosini tanlaydigan tizim yaratilyapti.



Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

TARIXIY QUVVAT KELAJAKKA ZAMIN HOZIRLAMOQDA

Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini tubdan modernizatsiya qilish, yoshlarning jahon andozalari darajasida bilim olishi uchun zamonaviy sharoitlar yaratish borasidagi islohotlar uzoq, boy va ibratli an’analarga ega oliy o‘quv yurtlaridan biri bo‘lgan Buxoro davlat universitetida ham hozirjavoblik bilan amalga oshirib kelinmoqda. O‘tgan asrning o‘ttizinchi yillari tamal toshi qo‘yilgan bu ko‘hna va navqiron oliy ta’lim dargohiga 1992-yilda universitet maqomi berildi.



Universitetimiz o‘tgan davrda mamlakatimiz va qo‘shni davlatlarga turli sohalar bo‘yicha oliy malakali mutaxassislar tayyorlab kelmoqda. Yaratilgan keng imkoniyat va qulay shart-sharoitlar tufayli xorijlik talabalar, olimlarning oliy o‘quv dargohimizga qiziqishi ortayotir. Bu universitetimiz obro‘si oshib, mamlakatimiz ta’lim tizimi yuksalib borayotganidan dalolat.

Qadim va navqiron Buxoroni nafaqat sayyohlik markazi, balki dunyo olimlari intiladigan, tinchlik, ma’rifat va ilm-fan tarqaladigan yirik maskanga aylantirish muhim maqsadlardan. Shu bois, azim shaharda ilmiy maktablar an’anasini tiklashda Buxoro davlat universiteti tashabbuskor bo‘lmoqda. Zero, millatimizning ma’naviy yuksalishi, ilm-fanga yuksak e’tibori va Uchinchi Renessans sari tashlangan qat’iy qadamlarida shu paytgacha shakllangan an’analar bilan zamonaviy ilm-fan yutuqlari uyg‘unligi katta ahamiyat kasb etadi.

Tarixi bir asrga bo‘ylashayotgan bu oliy o‘quv yurti aslida o‘z sarchashmasini 712-713-yillarda Buxoro arki ichida qurilib, dastlab ham maktab, ham madrasa vazifasini bajargan jome masjididan, qolaversa, VIII asrning o‘rtalaridayoq musulmon olamida bunyod etilib, 937-yilgi katta yong‘indan talofat ko‘rgan Forjaq madrasasidan olgan. Keyinchalik Buxoroda bunyod etilgan va islom olamida alohida nufuz kasb etgan Mir Arab, 1652-yilda ish boshlagan Abdulazizxon madrasasi, Abdullaxon, Nodir devonbegi, Ko‘kaldosh madrasalari oliy ta’lim berish borasida katta mavqega ega bo‘lgan. Buxoroi sharifning bu kabi madrasalarida turli davrlarda buyuk hadisshunos Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, qonunshunos Abu Hafs Kabir, mashhur tabib Abu Ali ibn Sino, muarrixlar Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiy, Hofiz Tanish Buxoriy, mutasavvuflar Abduxoliq G‘ijduvoniy, Umar Xayyom, Abdurahmon Mushfiqiy, Mulham Buxoriy, Nosir Buxoriy, Sayfiy Buxoriy, Xayoliy Buxoriy, Hasanxoja Nisoriy, Maxtumquli, Turdi Farog‘iy, Mujrim Obid, Rahmatulla Vozeh, ma’rifatparvarlar Ahmad Donish, Abdulqodir Savdo, Shamsiddin Shohin, Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Berdi Kerboboyev, baxshi Ergash Jumanbulbul o‘g‘li kabi ulug‘ insonlar tahsil olgan.



Darmonoy O‘RAYEVA,
Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Imom Buxoriy asos solgan hadisshunoslik maktabi, undan keyin shakllangan kalom hamda fiqh maktablari butun islom dunyosining huquqiy va ma’naviy poydevoriga aylanib, Buxoroga “qubbatul islom” maqomi berilishga sabab bo‘lgan. Abu Ali ibn Sinoning ilmiy izlanishlari tibbiyot ilmini jahon miqyosida rivojlantirdi. Buxorolik yetti pir tasavvuf va falsafa maktablari shakllanishiga olib kelib, nafaqat yurtimizda, balki islom olamida chuqur falsafiy, diniy-axloqiy, ijtimoiy ilmlarni taraqqiy toptirdi. Mana shularni inobatga olib, Buxoroning tarixiy maqomini tiklash va madaniy-ilmiy markazga aylantirish bo‘yicha Buxoro davlat universitetida amaliy qadamlar qo‘yilmoqda. Bunda, albatta, davlatimiz tomonidan belgilab berilgan ma’rifiy taraqqiyot yo‘lida Buxorodagi boy madaniy va ilmiy merosni asrab-avaylash barobarida, uni bugungi kun va istiqbol manfaatlariga xizmat qildirish ko‘zda tutilmoqda.

Buxoro davlat universiteti bitiruvchilari orasidan davlat arboblari, taniqli olimlar, shoiru yozuvchilar, maorif va iqtisodiyotning turli jabhalarida muvaffaqiyat bilan ishlab, xalq va davlatning ehtiromi va e’zoziga sazovor bo‘lgan ko‘plab insonlar, ishlab chiqarish, sanoat, madaniyat, san’at, xalq ta’limi xodimlari, ustoz-murabbiylar, jurnalistlar, deputatlar, xalqaro sport musobaqalari g‘oliblari yetishib chiqqan. Uning tarixida akademik To‘ra Mirzayev, xalq shoiri Jamol Kamol, xalq yozuvchisi Ne’mat Aminov, Tojikiston xalq shoirasi Gulchehra Sulaymonova, adabiyotshunos Ibrohim Haqqulov, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikalari xalq artisti Ahmadjon Shukurov, bastakor O‘lmas Rasulov, erkin kurash, sambo, boks bo‘yicha jahon chempionlari nomi hamisha faxr bilan tilga olinadi.

Universitetda fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasida innovatsion korporativ (o‘zaro manfaatli) hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar yaratish, shu asosda respublika yarmarkalarida professor-o‘qituvchilarning samarali ishtirokini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilyapti. Tajribali ilmiy maktablar an’anasini davom ettirish, ko‘p yillik ilmiy, pedagogik va kasbiy tajribaga ega olimlar salohiyatidan unumli foydalanish, iqtidorli talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga keng jalb etish va istiqbolli ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘yicha maqsadli ishlar yo‘lga qo‘yilgan.

Ta’lim dargohida folklorshunoslik, o‘zbek tili va adabiyoti, O‘zbekiston tarixi, fizika, biologiya, kimyo, matematika, psixologiya, pedagogika, chet tillar, ma’naviyat asoslari va huquq kabi fanlar bo‘yicha ilmiy maktablar yaratilgan. Natijada ilmiy jihatdan yuqori natijalarga erishilyapti. Universitet jamoasi respublikamiz ta’lim tizimi uchun adabiyotlar yaratish bo‘yicha ham faol.

Bundan tashqari, OTMda ustoz-shogird tizimini yuqori bosqichga ko‘tarish, yosh olimlar, iqtidorli talabalarni kashf etish, xususan, yoshlarning ilm-fanga qiziqishi va rag‘batini oshirishga yetarli sharoit yaratilyapti. Umumiy maydoni 30,2 gektar bo‘lgan hududda 20 ming o‘rinli zamonaviy o‘quv binolari, 5400 o‘rinli shinam va barcha sharoitga ega talabalar turar joylari, zamonaviy laboratoriyalar, axborot-resurs markazi, stadion hamda sport-sog‘lomlashtirish majmualari barpo etilmoqda. Ilk natija sifatida shu o‘quv yilida yangi kampus hududida 2700 o‘rinli yangi zamonaviy o‘quv binosi foydalanishga topshirildi.

Xalqaro hamkorlik borasida xorijiy davlatlardagi ko‘plab ilmiy-o‘quv markazlar va universitetlar, xorijiy tashkilotlar bilan ilmiy aloqalar o‘rnatilmoqda. Xalqaro dastur va fondlar bilan bog‘liq chet el grantlariga erishish ham doimiy e’tiborda.

Qisqasi, Buxoro davlat universiteti kecha va bugun o‘zgacha qiyofada namoyon bo‘lmoqda. Uning kechagi tarixi kelajak yo‘lini belgilaydi. Bugun Buxoroda boy ilmiy merosni chuqur o‘rganish va qadimiy ilmiy maktablarni yangi davr talablari asosida qayta tiklash jarayoni faol amalga oshirilmoqda.





Ta’lim odimlari

ZAMONAVIY BINOLAR – MUNOSIB TUHFA

Mustaqilligimizning 35 yilligi shodiyonasi o‘quv yilini yangi, zamonaviy ta’lim muassasalarida boshlagan yoshlar uchun, ayniqsa, unutilmas voqelik bo‘ldi. Samarqand viloyatining Toyloq tumani hamda Navoiy shahrida foydalanishga topshirilgan ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari o‘quvchilari ham qo‘shaloq bayramni ko‘tarinki nishonlagan yoshlarga aylandi.



Toyloqdagi 2-ixtisoslashtirilgan maktab 362 o‘quvchi bilan ish boshladi. Qabul jarayonida har bir o‘rin uchun o‘rtacha 23 talabgor da’vogarlik qilgani maktabga qiziqish katta bo‘lganidan dalolat.

Navoiy shahrida ochilgan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internat filiali esa 504 o‘quvchi o‘rniga ega. Majmuada 222 o‘rinli yotoqxona va zamonaviy sport zali bor.

Jizzax, Farg‘ona va Buxoroda shu yil faoliyat boshlagan muhandislik maktablarida esa ta’lim 5 yillik dastur asosida STEM modeli bo‘yicha tashkil etiladi. Dastlabki 3 yilda o‘quvchilar fizika, matematika va xorijiy tillarni chuqur o‘rganadi, keyingi 2 yilda esa muhandislik fanlari bo‘yicha boshlang‘ich tayyorgarlikdan o‘tadi.

Ixtisoslashtirilgan maktablar yildan yilga ko‘payib boryapti va bu o‘zini oqlayaptimi degan savolga javoban erishilgan natijalarga nazar tashlaylik. 2019-yildan buyon ushbu maktablarda iqtidorli yoshlarni saralash, ularga xalqaro standartlar asosida ta’lim berish hamda yuqori malakali mahalliy va xorijiy pedagoglarni jalb etishning yangi tizimi shakllandi.

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligiga ko‘ra, bugungi kunga kelib SAT 1200+ natija qayd etgan bitiruvchilar ulushi 87 foizga yetdi, TOP-50, TOP-100 va TOP-300 universitetlarga qabul ko‘rsatkichlari sezilarli oshdi. Prezident maktablari bitiruvchilari dunyoning eng nufuzli universitetlariga o‘qishga qabul qilinmoqda.

2019-2026-yillarda agentlik tizimidagi maktablar soni 8 tadan 249 taga, o‘quvchilar qamrovi esa 3360 dan qariyb 95 ming nafarga yetdi. 2020-yilda xalqaro olimpiadalarda qo‘lga kiritilgan atigi 6 ta medal bugun 150 taga yaqinlashdi.

Shu ma’noda aytish mumkinki, tizimda nafaqat qamrov, balki ta’lim sifati, xalqaro natijalar va yoshlarimiz uchun yaratilayotgan imkoniyatlar ham yangi bosqichga ko‘tarilmoqda.

Bu yil Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimida xalqaro darajadagi yangi maktab ish boshladi. Toshkent shahrida ochilgan mazkur maktab xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan. 600 o‘rinli ta’lim dargohida o‘qish istagini bildirganlar soni 25 mingga yaqinni tashkil etgani quvonarli natija.

Shu kungacha ixtisoslashtirilgan maktablarga o‘quvchilar kamida 5-sinfdan qabul qilingan bo‘lsa, yangi ta’lim muassasasi boshlang‘ich tayyorlovni ham yo‘lga qo‘ydi. Agentlik rahbari Sevara Shokirovaning aytishicha, bu yana bir yirik loyiha. 6 yoshli bolajonlar soddalashtirilgan darslar bilan maktabga ko‘nikma hosil qiladi. Bolajonlarning sog‘lig‘i alohida e’tiborda. Kun-u tun ishlaydigan tibbiyot xodimlari, besh mahal taom tayyorlanadigan oshxona ular xizmatida. Umuman olganda, natija ko‘rsatish uchun barcha imkoniyatlar yetarli.

Maktabda xorijiy tillar fanlar bilan integratsiyalashgan holda o‘rgatiladi. Matematika, fizika, kimyo, biologiya va tabiiy fanlar ingliz tilida, milliy o‘quv dasturidagi fanlar esa davlat tilida o‘tiladi. Bu o‘quvchining xorijiy tilni faqat alohida fan sifatida emas, balki aniq va tabiiy fanlarni o‘rganish jarayonida ham amalda qo‘llay olishini ta’minlaydi. Akademik jamoaning 30 foizi xorijlik pedagoglar bo‘lsa, qolgan qismi xalqaro tajribaga ega mahalliy ustozlardan iborat. Har bir sinfda mahalliy va xorijlik mutaxassis birgalikda ta’lim beradi.

Maktabga qabul qilingan o‘quvchilar qanday tartibda saralab olingan bo‘lsa, ularga dars berajak ustozlar ham shunday tanlandi. Xususan, pedagoglar bilan alohida suhbatlar o‘tkazildi. Har bir o‘qituvchining dars o‘tish mahorati o‘rganilgach, xulosalar umumlashtirildi.

Ta’lim muassasasida xitoy tilini chuqur o‘rgatishga alohida e’tibor qaratilib, Xitoyning “Yinghua Academy Group” tashkiloti bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Hamkorlik doirasida zamonaviy xitoy tili dasturlarini joriy etish, o‘quvchilarni xalqaro imtihonlarga tayyorlash, pedagoglar malakasini oshirish va ta’lim jarayoniga ilg‘or yondashuvlarni tatbiq etish ko‘zda tutilgan. Ayni paytda maktabda xitoylik 3 mutaxassis dars o‘tmoqda.

Muassasa ta’lim modeli o‘quvchilarga fan va tillarni o‘rgatish bilan cheklanmaydi. Ta’lim jarayonida ularning mustaqil fikrlashi, vaqtni boshqarishi, jamoada ishlashi, liderlik qobiliyati va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham e’tibor qaratiladi. Shuningdek, o‘quvchilar uchun robototexnika, sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlili, kompyuter savodxonligi, shaxmat, san’at va musiqa yo‘nalishlarida qo‘shimcha mashg‘ulotlar tashkil etiladi. Bitiruvchilarga qo‘yiladigan talab esa IELTS, SAT kabi xalqaro imtihonlardan yuqori natija ko‘rsatish, dunyoning nufuzli universitetlariga o‘qishga kira olishdir. Yaqin kelajakda jamoa xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri hamkorlikni yo‘lga qo‘yishni reja qilayotgani maktab nufuzini yanada oshirishda muhim omil bo‘ladi.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Obod go‘shalar

NURLI HAYOTNING YORQIN MANZARASI

Qizilqum bag‘rida joylashgan Navoiy viloyatida inson uchun qulay muhit yaratish va bunyodkorlik jarayonlarida alohida yondashuv talab qilinadi. Bugun viloyatda iqtisodiy salohiyat bilan uyg‘un ravishda shahar va tumanlarning qiyofasi ham o‘zgarmoqda. Yangi yo‘llar, zamonaviy xiyobonlar, istirohat bog‘lari, sun’iy ko‘llar, tunda ham yorug‘ sayr ko‘chalari barpo etilmoqda.

Navoiy shahridagi “Yoshlik” ko‘li aholining sevimli maskaniga aylangan. Ko‘l atrofi yaxlit zamonaviy majmuaga aylantirilmoqda. Loyiha amalga oshgach, bu yerda istirohat bog‘i, zamonaviy akvapark, bolalar va yoshlar uchun dam olish maydonchalari, xizmat ko‘rsatish va servis obyektlari paydo bo‘ladi. Sakkiz ming kvadrat metrli tabiiy plyaj bir vaqtning o‘zida 1,5 mingtagacha aholiga xizmat ko‘rsatadi.

— Loyiha uchun davlat tomonidan qariyb 52 milliard so‘m yo‘naltirilgan. Hozirgacha uning 90 foizi o‘zlashtirildi, — deydi Navoiy shahar hokimi o‘rinbosari Iskandar Tursunov. — Jarayonda loyihaga qator o‘zgarishlar ham kiritildi. Ilgari barcha xizmatlar yagona hududda jamlangan edi. Hozir dam olishning turli yo‘nalishlari alohida zonalarga ajratilmoqda. Xususan, cho‘milish va plyaj zonalari alohida bo‘ladi. Shuningdek, imkoniyatlarni kengaytirish uchun qayiqda sayr qilish, suv bo‘yida hordiq chiqarish kabi xizmatlar yo‘lga qo‘yiladi. Muhimi, bu maskan nafaqat yoshlar, balki oilalar, bolalar va umuman, aholining bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi uchun qulay va zamonaviy dam olish hududiga aylantiriladi.

Yangi Navoiy shaharchasida qad rostlayotgan “Navoiy Mall” loyihasida nafaqat savdo, balki aholi munosib hordiq chiqarishi uchun barcha qulayliklar yopiq maskanga jamlanadi. Binoning dastlabki besh qavatidan savdo markazlari joy oladi. Yer usti va osti hududlarida avtoturargohlar bo‘ladi. Hozir maydoni 1,5 gektarli loyiha asosidagi qurilish-montaj ishlari davom etmoqda. Bunday maskanlar insonlarda yaxshi kayfiyat, xotirjamlik va ertangi kunga ishonch uyg‘otsa, obodlik o‘z ma’nosini topadi.

Navoiy shahri va Karmana tumani tutashgan hududda “Sohilbo‘yi” loyihasi amalga oshirilmoqda. Ayni vaqtda asosiy qurilish ishlari qizg‘in davom etmoqda. Maskan to‘liq ishga tushgach, sayrgoh bir vaqtning o‘zida 3 mingdan ziyod aholiga xizmat ko‘rsata oladi. Muhimi, qariyb 120 kishi doimiy ish bilan ta’minlanadi.

— Qurilishga 85 mutaxassis va ishchi jalb qilingan, — deydi qurilish tashkiloti ish yurituvchisi Azizbek Salomov. — Hozir loyihaning 30 foizidan ortig‘i tayyor bo‘lgan. Ushbu dam olish maskanida 24 ta haykal, 4 ta sharshara, 3 ta ko‘prik bo‘ladi. Sohil bo‘yida uch qavatli bino qurilyapti. Aholi madaniy hordiq chiqarishi uchun barcha jihatlar inobatga olingan. Kichik va katta yoshdagilar uchun ham alohida qulayliklar yaratiladi.



Kun davomida mehnat qilgan fuqarolar ishdan qaytgach, yorug‘ ko‘chalarda oilaviy sayrga chiqishi, yoshlar do‘stlari bilan mazmunli vaqt o‘tkazishi bugun hududlarda odatiy manzaraga aylandi. Karmana tumanidagi 24/7 ko‘cha ham kunduzgi harakat va tungi hayot uyg‘unlashgan yangi jamoat maskanlaridan biri. Kunduz xizmat va harakat, kechqurun sayr va muloqot, tunda esa nurli va fayzli manzara. Obod ko‘cha shu tariqa oddiy infratuzilmadan aholi hayotining bir qismiga aylanmoqda.

— Tumanimizda drayver sohalarni rivojlantirish maqsadida 5 ta loyiha ishlab chiqilib, ijrosi uchun 15 milliard so‘m ajratilgan, — deydi Karmana tumani hokimi o‘rinbosari Sherzod Zayniyev. — Ulardan biri “Sohilbo‘yi” loyihasi bo‘lib, bu yerda 60 dan ortiq xizmat ko‘rsatish va savdo obyekti quriladi. Loyiha ishga tushgach, Karmana tumanining 30 mingga yaqin aholisi uchun madaniy hordiq chiqarish imkoniyati kengayadi.

Qizilqum kengliklari bag‘rida o‘z taraqqiyot yo‘liga ega, yangi qiyofa kasb etayotgan Zarafshon shahrida ham bu borada amaliy ishlar qizg‘in. Shaharning yangi qiyofasini belgilayotgan loyihalar orasida “Zar Vegas” alohida ajralib turadi. Cho‘l va zamonaviy turizm imkoniyatlarini uyg‘unlashtirishga qaratilgan bu loyiha Zarafshonning sayyohlik salohiyatini namoyon etishga xizmat qiladi.

— Prezidentimizning “Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida Zarafshon shahridagi Marvarid ko‘li atrofida dor yo‘li, suzish havzasi, savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarini barpo etish vazifasi belgilangan, — deydi Zarafshon shahri hokimi o‘rinbosari Anvar Shohmirzayev. — Qarorga binoan 30 gektar yerda ko‘ngilochar, ekstremal va cho‘l turizmi yo‘nalishida turizm shaharchasi tashkil etilmoqda. Loyihaga Turkiyaning sohada yetakchi kompaniyasi tomonidan alohida master-reja ishlab chiqilgan. Shuningdek, aholi maroqli dam olishi va sayr qilishi uchun 24/7 ko‘chasi barpo etildi.

Xatirchi tumanida ham yirik loyihalar qatorida aholi uchun zarur infratuzilma yaratish bo‘yicha salmoqli ishlar qilindi. Tuman markazidagi Amir Temur nomidagi istirohat bog‘i esa bu o‘zgarishlarning muhim nuqtasidir. Bu yerda keng ko‘lamli ta’mirlash ishlari bajarildi.

Mustaqilligimizning 35 yilligi arafasida Xatirchida zamonaviy “Sohilbo‘yi” dam olish maskani foydalanishga topshirildi. Ushbu loyihaning birinchi bosqichiga 6,9 milliard so‘m yo‘naltirildi. Muhimi, 100 dan ortiq kishining bandligi ta’minlandi. Hozir 8,1 milliard so‘m evaziga ikki qirg‘oqni bog‘lovchi osma ko‘prik va maskanning ikkinchi bosqich qurilish ishlari jadal kechmoqda.

Insonning o‘z go‘shasida qadr topishi muhim. Hududlarda yaratilayotgan turli yo‘nalishlardagi infratuzilma aholiga ana shunday shukronalik hissini bermoqda. Bugungi bunyodkorlik kelajak avlodga qoladigan meros, nurli manzillar esa farovon hayotning yorqin manzaralaridir.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

2026-yil 18-sentabr, 193-son


YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘tkir Hoshimov ijodining milliy adabiyotimizdagi mustahkam o‘rni va avlodlar qalbiga yetib borishining bosh sababi ham aynan shunda — uning hayotiy pozitsiyasi bilan badiiy mahorati o‘rtasidagi komil mutanosiblikda. Hayotda qanday yashagan bo‘lsa, o‘z asarlarida ham shunday rostgo‘y va kamtar ijodkor bo‘lib qoldi.

O‘tkir Hoshimov tavalludining 85 yilligiga

NASRDAGI SHOIR



Nega biror shaxs yoki voqeani eslaganimizda, butunlay kutilmagan, lekin bir-biriga uzviy bog‘liq boshqa tushuncha yoki makon ko‘z oldimizga keladi? Psixologiyada bu hodisa “assotsiativ langar” deb ataladi. Inson zehni ulkan axborot oqimini tartibga solish uchun obyektlarni muayyan vositalar — joy, voqea yoki ramzlar bilan kodlaydi. Natijada miya uzoq davom etadigan mantiqiy zanjirlarni chetlab o‘tib, eng kuchli bog‘lanishga ega tayanch nuqtaga darhol ulanadi.



Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

O‘tkir Hoshimovni eslaganimda xayolimga shovillab, vahm solib oquvchi Bo‘rijarning kelishi adib asarlaridagi voqealar makonining hissiy va mantiqiy markazlashtirilgani bilan bog‘liq. Yozuvchi ushbu hudud muhitini, undagi insonlar taqdiri va ijtimoiy munosabatlarni g‘oyat aniq tasvirlagan. O‘quvchi xotirasida ijodkor obrazi va Bo‘rijar geografiyasi bir-biriga uzviy singib ketgan.

Mana, masalan, Abdulla Qodiriy ismi tilga olinganda ko‘pchilikning xayoliga beixtiyor Marg‘ilon shahri keladi. Qodiriy o‘zi Toshkentda tug‘ilib o‘sgan bo‘lsa-da, uning eng mashhur asaridagi asosiy voqealar tuguni va fojialar aynan Marg‘ilon bilan bog‘langani sababli inson xotirasi yozuvchini ushbu shahar obrazi orqali qabul qiladi.

Chingiz Aytmatovni eslaganimizda esa Issiqko‘l yoki qirg‘iz dashtlari ko‘zimiz oldida gavdalanadi. Uning asarlaridagi inson va tabiat o‘rtasidagi ziddiyatlar aynan shu kengliklar fonida ochib berilgani uchun bu geografik hududlar adib shaxsiyatining ramziy davomiga aylangan. Bunday misollar juda ko‘p. Shaxs qaysi tushuncha, g‘oyaga eng ko‘p emotsional va intellektual quvvat sarflagan bo‘lsa, jamoatchilik xotirasida ham u aynan o‘sha obrazda muhrlanadi.

Albatta, O‘tkir Hoshimov haqida shakllangan tasavvur, avvalo, uning asarlari va odamlar bilan munosabatida ko‘ringan jihatlarga bog‘liq. Biz tashqaridan bilgan ushbu fe’l-atvor adib dunyoqarashidagi qat’iyat va matonatni to‘la



anglatmasligi mumkin. Ammo yozuvchining odamlar bilan muomalasidagi yumshoqlik, hayot, adabiyot va e’tiqodiga munosabatidagi prinsipiallik, shubhasiz, bir-birini inkor etmagan. Aksincha, uning shaxsiyatini yaxlitlashtirgan ikki jihatdir. Shu sabab adibni yaqindan bilganlar xotirasida u faqat ko‘ngilga yaqin, xushmuomala inson sifatida emas, balki ichki mezonlari aniq, o‘z qarashlaridan osonlikcha chekinmaydigan dilbar shaxs sifatida ham qolgan.

— Dadamning asarlarini o‘qigan kitobxon muallifni ko‘ngil odami deb o‘ylaydi. U bilan bevosita suhbatlashganlar ham dadamni xushmuomala, yumshoqfe’l odam sifatida eslab qolgan, — deya xotirlaydi adibning qizi Yulduz Hoshimova. — Aslida, dadamning ichida mustahkam o‘zak bor edi. Qat’iyat o‘zagi, adolatparvarlik o‘zagi. Bu fe’li nohaqliklarni ko‘rganda namoyon bo‘lardi. Qayerda ishlashidan qat’i nazar, o‘zi to‘g‘ri deb bilgan yo‘ldan hech qachon qaytmagan. Vijdoniga qarshi borganini ko‘rmaganman. Shuning orqasidan juda ko‘p dakki eshitgan. Hatto “Sharq yulduzi”da ishlab yurgan payti unga qarshi besh yuz betli qoralov materiali yig‘ilgan. Tasavvur qiling-a, besh yuz betli!

Zamondoshlari o‘z xotiralarida yozuvchini el ardoqlagan, u adabiyotga kirib kelganidan buyon ijodda g‘irromlik yo‘lidan yurmagan, iste’dodini shaxsiy manfaatlariga qurbon qilmagan deb yozar ekan, haqiqatan, adibning qalbiga quloq solmay, vijdoniga xilof ravishda yozgan, yolg‘onga va yomonlikka xizmat qiluvchi yoki kitobxonni loqayd qoldiruvchi birorta asari



yo‘qligini hushyor o‘quvchi tushunib yetadi. Shuning uchun xalq uni darrov, to‘siqlarsiz, pardalarsiz qabul qildi — o‘g‘ildek, otadek, shogird hamda ustozdek.

“Siz — mening o‘g‘limsiz”

O‘zbekiston Qahramoni, adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov bunday eslagan: “Bu voqea Quvadagi bir kolxozda ro‘y bergandi. Dala shiyponida, tushlik vaqtida kitobxonlar bilan uchrashuv bo‘lyapti. Avji saraton. Quyosh rosa zabtiga olgan. Choqqina hovuz tevaragidagi tollar ham, did bilan saralab ekilgan anvoyi gullar ham issiqdan toliqqandek qilt etmaydi. Lekin uchrashuvga to‘planganlarni jazirama shashtidan qaytargani yo‘q. Olis brigadalardan ham, hatto qo‘shni xo‘jaliklardan ham odamlar kelgan.

Bir mahal odmigina kiyingan o‘rta yoshlardagi ayol minbarga ko‘tarildi. Chehrasida cho‘ng bir musibatning muhri ilg‘anib turgan bu ayolning ismi Musharraf aya ekan.



— O‘tkirjon, siz mening o‘g‘limsiz, — dedi u hayajonda. — Hayron bo‘lmang, mening o‘g‘lim bor edi. Afg‘ondan temir tobuti keldi. Yig‘lay-yig‘lay ko‘zimda yosh qolmadi. Musibat meni yengishi aniq edi. Bir kuni qo‘limga bir kitob tushdi. “Dunyoning ishlari”. Uni o‘qidim-u, ruhim yengil tortganday bo‘ldi. Ayolning, onaning ulug‘ligini yana bir bor his qildim. Shunda sizni o‘g‘lim o‘rniga o‘g‘limdek qabul qildim. Allohdan o‘g‘lim yashayolmagan umrni sizga bag‘ishlashini tiladim. Shu tilak bilan sizga atab do‘ppi tikdim...

Musharraf aya gapini tugatib, O‘tkirning yoniga bordi va oq dokaga o‘ralgan do‘ppini olib, boshiga kiygizdi. Yo‘q, gulduros qarsaklar yangramadi, kimlardir bo‘g‘ziga kelgan yig‘ini yutib, ko‘zlarini pirpiratdi, kimlarningdir ko‘zlariga yosh qalqdi.

Oddiy qishloq ayolining adibga bunchalik mehri meni hanuzgacha hayajonga soladi. Bora-bora oddiy odamlarning O‘tkirga bag‘oyat ehtirom ko‘rsatishiga ko‘nikib ham ketdim. Chunki har yili kamida bir-ikki marta bunday hodisalarning guvohi bo‘la boshladim...”.

O‘tkir Hoshimov qonida, tabiatida ajdodlaridan o‘tgan, xususan, bobosiga xos arboblik, otasidan o‘tgan bir oz qiziqqonlik, haqparastlik, onasidan tekkan ko‘ngilchanlik, o‘zgalar dardiga hamdardlik xislatlari o‘ziga xos tarzda mujassam. Yozuvchining bolaligi og‘ir urush davrida o‘tdi. U urush davrining muhtojliklari va mashaqqatlarini ko‘rib, tatib o‘sdi. Ham qishloq, ham shahar odami sifatida shakllandi. Keyinchalik bolalik taassurotlari uning ijodida chuqur iz qoldirdi.

Adibning ajdodlari o‘z zamonasining yetuk insonlari bo‘lgan. Bobokaloni Abulqosimxon eshon Chor Rossiyasining Turkistonga bosqiniga qarshi turgan ulamolardan bo‘lib, o‘n to‘qqizinchi asr o‘rtalarida o‘z mablag‘iga katta madrasa qurdirgan. Unda yuzdan ortiq talaba ilm olgan. Abulqosimxon eshon ahli ilmning yotog‘idan tortib, kundalik turmushi uchun nafaqa (stipendiya) ham to‘lab borgan. Bu dargohda Abdulla Qodiriy ham o‘qigan, tahsil ko‘rgan.

Otasi Ataulla Hoshimov esa oddiy ishchi bo‘lgan. Umrining ko‘p qismini Toshkent to‘qimachilik kombinatida, keyin shu kombinat huzuridagi pionerlar lagerida ishlab o‘tkazgan. “Otam eskicha alifbodagi kitoblarni ham, zamonaviy gazetalarni ham muttasil o‘qib borar, kamgap, xiyla tajang, ammo nihoyatda haqparast odam edi... Biror nohaqlikni ko‘rsa, lov etib yonib ketar, “padaringga la’nat”, “ko‘rsatib qo‘yish kerak”, deb shovqin ko‘tarardi”.

O‘tkir Hoshimov “Mashaqqatli safar” degan tarjimayi holida oilada otasi bilan bog‘liq yana bir holatni alohida ta’kidlaydi: “Otamdan qattiq hayiqar edik. Otam biron marta ham bir tarsaki urgan emas. Otani qattiq izzat qilishni onam o‘rgatgan: “Hozir adang keladila, uyni supurib qo‘y”, “Adangning jahllari yomon, tinch o‘tiringlar”, “Adangning ketmoniga tegma”, “Adangning soatiga qo‘l tekkizma...”. Bilmadim, hozirgi zamonaviy oilalarga bu holat “feodalizm” bo‘lib tuyular, ammo bizning oilamizda ota shaxsiga ehtirom farzandlarga ziyon keltirganini eslay olmayman”.


Bo‘lg‘usi adibning onasi Hakima Hoshimova uy bekasi edi. Bu ayol madrasa ko‘rmagan bo‘lsa ham g‘oyat zehni o‘tkir, juda xushfe’l ayol bo‘lgan. “Onam esa, aksincha, nihoyatda yuvosh, juda mehribon edi. Qo‘shnining mushugi tug‘sa ham, joni og‘rigandir, deb achinar, ko‘chada biror bola yig‘lab o‘tirgan bo‘lsa, albatta, tepasiga borib boshini silar, biror sabab bilan biz — bolalarni qarg‘asa, o‘zi ham yig‘lab yuborar, o‘sha zahoti ko‘nglimizni olishga harakat qilardi”. U nihoyatda farishtali, diyonatli ayol bo‘lgani uchun mahalla-ko‘yda uni yosh-u qari baravar hurmat qilardi. Odamlar o‘rtasida bu ajoyib inson “poshsha oyi” degan nom bilan shuhrat topgandi. Aytgancha, bu kishi qanaqa odam bo‘lgani “Dunyoning ishlari”da mahorat bilan tasvirlangan.

“O‘tkir Hoshimovda nafosat tuyg‘usi behad kuchli. Hatto u aldangan odamning ma’naviy inqirozi, fojiasi, halokati tasvirida ham shu tuyg‘uni saqlab qoladi. Ayniqsa, u yaxshi, olijanob, ma’naviy barkamol shaxslar qalbi, tabiati tasvirida o‘zini nihoyatda erkin his etadi”, degan edi adabiyotshunos Umarali Normatov. Haqiqatan, yozuvchining ijobiy qahramonlari aksari go‘dakday beg‘ubor, nafosat tuyg‘usiga boy, o‘ta ta’sirchan odamlar. Ehtimol, yozuvchi asarlari qahramonlarining o‘zbek kitobxonlari ko‘pchiligini asir qilgan omillardan biri shundadir. Uning asarlarida personaj talqinidagi nafosat tuyg‘usi bilan yo‘g‘rilgan liro-romantik yo‘nalish alohida jilo bilan namoyon bo‘ladi. Bu holat, shubhasiz, milliy nasrimizning boyligi.

To‘lg‘oq tutganda...

Paustovkiyning bunday gapi bor: “Har bir daqiqa, bexosdan aytilgan har bir so‘z va tashlangan nigoh, har bir teran va yuzaki fikr, inson yuragining har bir sezilmas harakati, terakning uchib yurgan momig‘i yoki kechasi ko‘lmakda jimirlagan yulduz shu’lasi — hamma-hammasi oltin changining zarralaridir. Biz, qalamkashlar o‘n yillarcha mana shu kichik zarralarni yig‘amiz, yig‘ayotganimizni o‘zimiz ham payqamaymiz. Bir bo‘lak tillaga aylantiramiz va keyin undan o‘zimizning “oltin gul”imizni — qissa, roman yoki poemamizni yasaymiz...”.

Paustovskiyning “oltin gul” haqidagi qarashi ijod tabiatining eng nozik falsafasidir: yozuvchi atrofidagi har bir mayda ishorani, his-tuyg‘u va taassurotni jimgina o‘ziga singdirib boradi. Ular vaqti-soati kelib bitta butun asar, yaxlit olamga aylanadi. Ammo bu metafora ortida muallifning ruhiyatida kechadigan murakkab va azobli jarayon yashiringan. Yig‘ilgan shu “oltin changi” yombi holga kelishi uchun qog‘ozga tushar ekan, ijodkor tashqi dunyo bilan aloqasini deyarli uzadi. Bu holat har qanday chalg‘ituvchi chaqiriqdan, hatto eng maroqli safarlardan ham ustun keladi.



Buning qanchalik haqiqat ekaniga Ibrohim G‘afurov guvoh bo‘lgan bir voqea yaqqol misol bo‘la oladi: “Yozuvchi zotini to‘lg‘oq tutgan paytlarni ko‘rganman. Bunday to‘lg‘oqning shirin azobi paytida uning ko‘ziga hech narsa ko‘rinmas, yegan-ichgani tatimas ekan. Imkoniyat tug‘ilib, Pokistonga safarga boradigan bo‘ldik. Erkin Vohidov, O‘tkir Hoshimov, Dadaxon Nuriy, Ahmadjon Meliboyev va kamina. Bu safarga O‘tkirning hech borgisi yo‘q edi. Biz uni ko‘ndirishga urinar, u esa nuqul “qolib ketadi”, “qolib ketadi”, der va qo‘lidagi pirildog‘ini o‘ta asabiy noxush pirillatardi. Shu kezlar u bir asar ustida ishlayotgan, keyingi voqealar, ziddiyatlarning yechimlari miyasida pishib yetilgan, endi ularni shitob bilan qizig‘ida qog‘ozga tushirish payida edi. U do‘stlarining yuzidan o‘tolmay, ne azob bilan bo‘lsa-da, biz bilan hamroh bo‘ldi. Lekin uch kun sira-sira ochilmadi. Boshini bulut bosganday tumtayib yurdi. Nazarimda, kasal bo‘lib qolayotganga o‘xshardi.

Oxirgi kuni “Axir nega bunaqasiz, O‘tkir!” desam, nihoyat yorildi. “O‘sha sizga aytganman: yangi roman oxirigacha miyamda pishdi, tez tugatmasam, soviydi. Qolib ketadi!” dedi yana ayanchli yozg‘irib. “Tempni yo‘qotib qo‘yish yomonda, a?” dedim. U xuddi shuni kutib turganday, “Juda yomon, juda yomon!” dedi avvalgidan battar xunob bo‘lib.

Xullas, uch kun safarda unga hech narsa tatimadi. Ignaning uchida kelganday bo‘ldi. Hatto janub dengizi, sarin shamollar, qiziqarli uchrashuvlar uning bahridilini ocholmadi… Men uni do‘stlarim qatori bu safarga ko‘ndirganimga o‘kindim. Ijodkorga bu yangi asarga homilador bo‘lganda, to‘lg‘oq tutganda sira tegib bo‘lmasligini angladim. Ammo bir oylardan so‘ng u yuzi yorishgan, ko‘zi porlagan holda keldi. “Tugatdim! — dedi. — Nom topish kerak”. U bir qancha nomlarni aytdi. Ular ichida juda e’tiborli, salmoqdorlari ham bor edi. Bir oz o‘tirib, ularni “razbor” qildik. Baribir ularning birortasiga to‘xtash qiyin bo‘ldi. Andak vaqt o‘tgach, do‘stlarimizdan biri “Bu voqealar xuddi tushday kechsin”, deb aytibdi. O‘tkirning miyasi yarq ochilib, “Tushda kechgan umrlar” degan nom yuzaga chiqdi. Adabiyotimizda yangilik bo‘lgan romanlardan biri shunday to‘lg‘oqlarda tug‘ildi. Albatta, Pokiston safari ham behuda ketgani yo‘q. Afg‘onga o‘xshash sharoitning ruhi o‘z o‘rnida aks sadosini topdi”.

Badiiy asar katta hayajon bilan, shavq bilan yozilishi kerak. Bu haqda yozuvchi bunday deydi: “Kitob yozayotgan qalamkashning hayajoni kitob o‘qiyotgan o‘quvchining hayajonidan o‘n karra kuchli bo‘ladi. Kitob o‘qiyotganingizda jinday tabassum qilsangiz, bilingki, o‘sha sahifalarni qalamkash rosmana kulib yozgan. Kitob o‘qiyotganingizda ko‘zingizga bir qatra yosh kelsa, bilingki, qalamkash o‘sha sahifalarni rosmana yig‘lab yozgan”.

Ijtimoiy tarmoqqa joylangan eski intervyularni birma-bir ko‘zdan kechirarkanman, yozuvchining ayoli O‘lmasxon Hoshimovaning ushbu hikoyasi diqqatimni tortdi: “1982-yili Pitsundaga bordik. Yozuvchilar ijodiy uyidan xona berishdi. Men bolalarni dengizga olib boraman. Adasi deyarli xonadan chiqmay ishlaydilar... Oradan o‘n kunlar o‘tdi. Bir gal xonaga qaytsak, yozgan narsalarini yirtib tashlayaptilar. Hay-haylab bir qismini olib qoldim. Qo‘lyozma sarlavhasini shunda ko‘rdim. “Ertaga — kuz”. Yuz betlar yozilgan ekan, deyarli hammasi yirtilib bo‘pti...

— Nega unday qildingiz? — desam, qo‘l siltadilar:

— Bo‘lmaydi! Sig‘mayapti! Xom!

Qo‘lyozmaning omon qolgan sahifalarini o‘qib ko‘rsam, binoyidek. Nima “bo‘lmagani”, nima “xom”ligini oradan ikki yil o‘tgach, “Ikki eshik orasi” romani qog‘ozga tushganidan so‘ng angladim. “Ikki eshik orasi”dek salmoqli, falsafiy, psixologik roman avvalgi uslubga ham, qolipga ham sig‘ishi mumkin emas ekan”.

“O‘tkir Hoshimovni nasrdagi shoir, yetuk asarlarini esa nasrdagi qo‘shiq, tarona deb atash mumkin, “Cho‘l havosi”dan tortib, “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobiga qadar barcha asariga xos mushtarak jihat shuki, ular betakror, benazir sirli musiqiy ohang bilan yo‘g‘rilgan”, deydi Umarali Normatov. Darhaqiqat, muallif qalami uchidan so‘zlar musiqa singari quyilib keladi; uning hikoya va qissalari she’rdek, dostondek o‘qiladi, ular yakka sozda chalingan dilrabo kuydek yangraydi, romanlari ko‘p ovozli simfoniyani eslatadi, hatto uning badialari, publitsistik maqolalarini o‘qiganda inson ko‘ngil xazinasining, tuyg‘ularining xilma-xil jilolari mujassam, oddiy maishiy kechinmalardan tortib, ulkan ijtimoiy mushohadalar, keskin ruhiy dramalar, fojialar, qabohatlar haqida qalam tebratganda ham nafosat tuyg‘usini aslo tark etmaydi. G‘oyat tig‘iz lavhalarda ham ajib samimiyat, hazin va nurli bir kuy aks sado berib turadi.

Yalpizsomsa

Xalq yozuvchisi haqida xalq xulosa qilgani ma’qul. Tag‘in adib hayoti va ijodiga oid xotiralarni o‘qirkanman, G‘ani Abdullayev degan bog‘bonning maqolasiga ko‘zim tushdi: “Esimda, erta bahor kezlari edi. Tushlik qilish uchun uyga ketayotsam, dala yo‘lining chetida O‘tkir akaning havorang “Jiguli” mashinasi turibdi. Yaqinroq borib qarasam, yozuvchi umr yo‘ldoshi O‘lmasxon opa bilan anhor qirg‘og‘ida yuribdi. Yalpiz terishayotgan ekan. “Nega shiyponga bormadingiz?” desam, “Sizni ishdan qoldirgimiz kelmadi”, deyishdi... Ertasiga nima sababdandir shiyponga peshindan keyin bordim. Qarasam, shiypon ustunining mixida bir xaltacha ilig‘liq turibdi. Ochib ko‘rsam, ichida qog‘oz paketga solingan yalpizsomsalar bor ekan. Gazeta tahririyatiga qo‘ng‘iroq qildim. “Ertalab ishga kelayotganda chaylaga o‘tgan edim, yo‘q ekansiz, sizning nasibangizni qoldirdim”, dedi O‘tkir aka...

Shu xotiraning o‘ziyoq O‘tkir Hoshimov fenomenini ochib beradi: yozuvchining shaxsiyati va badiiy olami aslida bir-biridan ayro bo‘lmagan yagona butunlik edi. Jamiyatdagi mavqeiga qaramay, oddiy mehnatkash insonning mehnatini qadrlash, unga kamtarona va samimiy munosabatda bo‘lish adib uchun ichki e’tiqod edi.

Kitobxonlik tajribasi shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchi matndagi soxtalashtirilgan tuyg‘ularni tez payqaydi. Mazkur voqea esa adibning asarlaridagi samimiyat manbai qayerdan ekanini yaqqol isbotlaydi: hayotda odamlarni chin dildan sevgan, ularning ichki dunyosini hurmat qilgan va kichik e’tiborni ham unutmagan adibgina o‘z asarlarida o‘quvchini larzaga soluvchi haqqoniy obrazlarni yarata oladi.

O‘tkir Hoshimov ijodining milliy adabiyotimizdagi mustahkam o‘rni va avlodlar qalbiga yetib borishining bosh sababi ham aynan shunda — uning hayotiy pozitsiyasi bilan badiiy mahorati o‘rtasidagi komil mutanosiblikda. Hayotda qanday yashagan bo‘lsa, o‘z asarlarida ham shunday rostgo‘y va kamtar ijodkor bo‘lib qoldi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-946.
29323 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Jonibek Alijonov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Веб-сайт: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60